



# VATANPARVAR

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

● Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan ● 2024-yil 3-may, №18 (3080)

**4-5** HAMKORLIKDAGI  
O'ZBEK-HIND MASHG'ULOTLARI  
YUKSAK SAVIYADA O'TDI

**6-7** JASORATGA  
MUNOSIBLAR AHDI

**9** BEDARAK KETGAN TO'RT  
ASKAR HIYOYASI

**11** DADAMNING YOSHLIGI  
URUSHDA KECHGAN

**15** HARBIY TIBBIY XIZMAT  
MUHOKAMASI



## VATANIM — BORIM DEB QASAMYOD QILDIM!



IJTIMOIIY-SIYOSIIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

**BIZ**  
HAQIMIZDA

@ vatanparvar-bt@umail.uz

t.me/mv\_vatanparvar\_uz

t.me/mudofaavazirligi

facebook.com/mudofaavazirligi

instagram.com/mudofaavazirligi

youtube.com/c/uzarmiya



# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING UCHINCHI TOSHKENT XALQARO INVESTITSIYA FORUMIDAGI NUTQI

## Hurmatli forum ishtirokchilari!

### Xonimlar va janoblari!

Avvalambor, Uchinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumida ishtirok etayotgan siz, azizlarni chin qalbidan samimiy qutlashga ijizat bergaysiz.

Shuni mamnuniyat bilan ta'kidlashni istardimki, yildan yilga yaxshi an'anaga aylanib borayotgan ushbu format doirasida yurtimizda dunyoning barcha qit'alaridan yangidan yangi ishonchli hamkorlarimiz jam bo'lmoqda.

O'tgan uch yil davomida mazkur forum ikki va ko'p tomonlama hamkorlikni kengaytirish, eng dolzarb muammolarni muhokama qilish, ilg'or g'oya va yondashuvlarni ishlab chiqish uchun samarali muloqot maydoniga aylandi. Bugungi tadbirimizga 93 ta davlatdan ikki yarim mingdan ortiq xorijiy mehmonlar kelgani ham forumning ahamiyati tobora ortib borayotganini yaqqol tasdiqlaydi.

Bu, o'z navbatida, mamlakatimizda ortga qaytmas tus olgan islohotlarga, o'zaro manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yishga bo'lgan ulkan qiziqishdan dalolat beradi.

### Hurmatli forum qatnashchilari!

Bugungi anjumanimiz global geosiyosiy va iqtisodiy muammolar avj olayotgan, barqaror rivojlanish yo'lida xavf va tahdidlar kuchayib borayotgan davrga to'g'ri kelmoqda.

Dunyo tartibotida chuqur transformatsiya jarayonlari kechmoqda. Tovar va xizmatlarni yetkazib berish zanjirlaridagi uzilishlar, xalqaro savdoning pasayishi, investitsiya oqimlarining kamayishi, iqlim ofatlarining kuchayishi – vaziyat naqadar beqaror va zaif ekanini yaqqol ko'rsatmoqda.

Jahon iqtisodiyotining o'sish sur'atlari so'nggi uch yil davomida pasaymoqda. To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar bilan bog'liq tendensiyalar ham kutilgan umidlarni oqlamayapti. 2023-yilda rivojlanayotgan davlatlarga kiritilgan investitsiyalar umumiy hajmi 9 foizga kamaydi.

Albatta, biz bugun jahonda investorlar uchun mislsiz kurash ketayotganini yaxshi tushunamiz. Biroq bir o'zgaras haqiqat tobora oydinlashmoqda. Hech bir mamlakat bu kabi o'tkir muammolarni yakka holda hal eta olmaydi. O'zaro ishonch va hurmat ruhi, bir-birini qo'llab-quvvatlash tamoyili uzoq muddatli hamkorlikning mustahkam ustuni bo'lib qolaveradi.

### Hurmatli xonimlar va janoblari!

Biz mamlakatimizda investitsiya va biznes muhitini tubdan yaxshilash, bu yo'ldagi to'siqlarni bosqichma-bosqich bartaraf etish uchun qat'iy qadamlar tashladik. Aynan shu bo'lsa har bir sarmoyador o'zini erkin va ishonchli his qilishi uchun keng ko'lamli islohotlarni amalga oshiryapmiz.

Sizlar yaxshi bilasiz, bundan yetti yil muqaddam biz uchun oson bo'lmagan, lekin katta marralarni ko'zlagan tizimli islohotlarni boshlagan edik. Biz iqtisodiyotni erkinlashtirish, qulay investitsiya muhitini yaratish, tadbirkorlar uchun imkoniyatlarni har tomonlama kengaytirishni asosiy maqsadimiz etib belgiladik.

So'nggi yillarda iqtisodiyotimiz qariyb ikki barobar o'sdi. O'tgan yil yakuni bo'yicha bu o'sish 6 foizni tashkil qildi. Inflyatsiya 9 foizgacha pasaydi. Savdo aylanmasi ko'rsatkichlari muttasil oshmoqda. Valyuta bozori oltin-valyuta zaxiralari barqarorligi saqlab qolinmoqda.

Oxirgi yillarda mamlakatimizda 60 milliard dollardan ziyod xorijiy investitsiyalar o'zlashtirildi. Xalqaro moliya institutlarining 14 milliard dollardan ortiq mablag'i ijtimoiy va infratuzilma sohaslariga jalb qilindi.

O'tgan yilning o'zida xorijiy investitsiyalar hajmi qariyb ikki barobar ko'paydi. Shu o'rinda energetika sohasida "ACWA Power", "Masdar", "Total Eren", "Volitalia", "Çalık" va "Aksa"; kimyo sanoatida "Air Products", "Indorama" va "Kamse"; tog'-kon va metallurgiyada – "Orano" va "DANIELI", avtomobilsozlik va elektrotexnika yo'nalishlarida "BYD", "Kia" va "Samsung", qurilish sohasida "Koç" va "KNAUF" kabi dunyoning yetakchi kompaniyalari hamda yirik brendlari bilan 300 dan ortiq investitsiya va sanoat loyihasi ishga tushirilgani va yuz minglab yangi ish o'rni yaratilganini katta mamnuniyat bilan ta'kidlaymiz.

Bugungi forum doirasida dunyoning ilg'or kompaniyalari hisoblangan "Linde", "Orascom", "DataVolt", "Bonafarm", "PASHA holding" va

boshqa sherkatlarimiz ishtirokida yangi yirik loyihalarga start beramiz.

Fursatdan foydalanib, bu ishga o'zining munosib hissasini qo'shayotgan xorijiy investorlarga, barcha hamkorlarimizga o'zimizning chuqur va samimiy minnatdorligimni izhor etaman.

Biz tadbirkorlik va biznesni qo'llab-quvvatlash maqsadida boshqa ustuvor yo'nalishlarda qator aniq choralarni ishlab chiqqanmiz.

Endilikda xorijiy sarmoyadorlar aksiyalardan olinayotgan dividendlar bo'yicha soliqlardan uch yil muddatga ozod etiladi.

Yaqinda xususiy lashtirish to'g'risidagi qonunni qabul qildik. 250 ta yirik korxonaning davlat ulushini va salkam 1 000 ta ko'chmas mulk obyektini sotish, 12 ta korxonaga aksiyasini fond bozorlarida birlamchi ommaviy joylashtirish (IPO) uchun yangi dastur ham ishga tushirildi.

Tadbirkorlar barqarorligi reytingi joriy etildi. Yuqori reytingga ega tadbirkorlik subyektlari uchun soliq tekshiruvlari o'tkazilmaydi.

Energetika yo'nalishidagi davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish tajribasini ijtimoiy va boshqa infratuzilma sohaslarida ham keng tatbiq etishni rejalashtirganmiz. Xususan, Xitoyning "Sitik" va "Kamse" kompaniyalari bilan irrigatsiya va avtomobil yo'llari, Fransiyaning "Suez" va "Veolia" kompaniyalari bilan ichimlik suvi ta'minoti, "Inter Health" va "Pure Health" arab kompaniyalari bilan zamonaviy tibbiyot muassasalarini qurish loyihalari ishlab chiqilmoqda.

Sanoat zonalarini infratuzilmasini byudjet mablag'lari hisobidan rivojlantirishga muhim ahamiyat qaratmoqdamiz. Tadbirkorlarga yer ajratishning zamonaviy shaffof tamoyillari, ya'ni auktsion savdo tizimi yo'lga qo'yildi. Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish doirasida qonunchilikni uyg'unlashtirishga qaratilgan 60 dan ortiq normativ hujjat qabul qilindi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tuzilib, 2030-yilgacha mo'ljallangan Milliy strategiya ishlab chiqilmoqda. O'tgan yili Toshkentda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro tadbirlarni o'tkazdik.

Nizolarni adolatli hal etish maqsadida Toshkent xalqaro arbitraj markazi muvaffaqiyatli faoliyat olib bormoqda. Uning tarkibida Amerika Qo'shma Shtatlari, Buyuk Britaniya, Italiya, Shvetsiya, Xitoy, Birlashgan Arab Amirliklari kabi mamlakatlardan 90 dan ortiq nufuzli hakam o'rin olgan.

Investorlar uchun yana bir muhim ko'rsatkich. Oxirgi yetti yilda oliy ta'lim qamrovi 9 foizdan 42 foizga oshdi, oliy o'quv yurtlari soni 200 tadan ortdi.

O'zbekistonda 90 dan ortiq davlatga vizasiz rejim joriy etildi.

### Hurmatli forum ishtirokchilari!

Bizning asosiy maqsadimiz O'zbekistonni xorijiy investorlar uchun ishonchli va uzoq muddatli hamkorga aylantirishdir.

Davlatimiz bozor munosabatlarini rivojlantirishni, investorlar huquqlari ishonchli himoya qilinishini, qulay investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishni, halol raqobat uchun yanada keng shart-sharoitlar yaratishni, xususiy mulk daxsizligi va sud tizimining mustaqilligi ta'minlanishini o'z zimmasiga olmoqda.

Biz bu tamoyillarni o'tgan yili umumxalq referendumida qabul qilingan yangi Konstitutsiyamizda qat'iy muhrlab qo'ydik.

Sarmoyadorlar huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish maqsadida bugun sizlarga qator aniq takliflarni bildirmoqchiman.

**Birinchidan**, yangi tahrirdagi investitsiyalar to'g'risidagi qonunni qabul qilamiz. Ushbu hujjat Jahon savdo tashkiloti tartib-qoidalarini va standartlariga muvofiq ishlab chiqildi.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga bu boradagi yaqin hamkorligi uchun alohida minnatdorlik izhor etmoqchiman.

**Ikkinchidan**, tez orada mamlakatimizda Raqamli texnologiyalar xalqaro markazi huzurida Xalqaro tijorat sudi ish boshlaydi. Ushbu sud O'zbekiston sud-huquq tizimida alohida o'ringa ega bo'ladi. Buning uchun yaqin muddatlarda maxsus qonunni qabul qilamiz. Protseptual kodekslarga ushbu xalqaro tijorat sudi qarorlari to'laqonli ijro etilishiga oid me'yorlarni ham kiritamiz.

**Uchinchidan**, yaqin vaqtda sanoat zonalarini tizimida mutlaqo yangicha yondashuvlarni joriy etamiz.

Yuqori texnologik loyihalarni amalga oshirish uchun investorlarga yanada qulay shart-sharoitlar yaratiladi. Sanoat zonalarini boshqarishda xususiy operatorlar, jumladan yuqori malakali xorijiy kompaniyalarni faol jalb qilish amaliyoti kengaytiriladi. Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyat muddatlari bo'yicha cheklovlar ham bekor qilinadi.

Xorijiy sarmoyadorlar uchun yerlarni ijaraga berish muddati 25 yildan 49 yilgacha, ya'ni ikki barobar uzaytiriladi. Bunda qonunlar bilan kafolatlangan amaldagi imtiyoz va preferensiyalar to'liq saqlab qolinadi.

Bu masalalarning barchasini ertaga Xorijiy investorlar kengashining navbatdagi yig'ilishida batafsil muhokama qilamiz.

### Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Tizimli islohotlarni davom ettirish, kuchli va farovon davlat qurish maqsadida "O'zbekiston – 2030" strategiyasini qabul qildik. Bu muhim hujjatda barqaror iqtisodiy o'sishga erishish, ijtimoiy himoya, sog'liqni saqlash va ta'lim tizimlarini isloh qilish, qonun ustuvorligini ta'minlash bo'yicha 100 ta aniq vazifa o'z aksini topgan.

2030-yilga borib, aholi daromadlarini ikki barobar oshirish va ushbu ko'rsatkich bo'yicha o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga kirishni maqsad qilib qo'yganmiz.

Iqtisodiyotda chuqur transformatsiya jarayonlarini, qulay investitsiya va biznes muhiti hamda sanoatda yuqori qo'shilgan qiymatni yaratishni izchil davom ettiramiz.

Shu o'rinda o'zaro manfaatli hamkorligimizni kengaytirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarga alohida to'xtalib o'tmoqchiman.

### Birinchisi yo'nalish: "yashil" energetika.

Energetika tarmog'i samaradorligini oshirish butun mintaqamiz uchun dolzarbdur. Bu borada mamlakatimizda 28 ta loyiha ustida ishlar davom ettirilmoqda.

Biz 2030-yilgacha 20 gigavatt dan ortiq qayta tiklanuvchi energiya quvvatlarini yaratish va energetika balansida uning ulushini 40 foizga yetkazishni maqsad qilganmiz.

O'tgan yilning o'zida 1,4 gigavatt quvvatdagi yirik shamol va quyosh elektr stansiyalarini strategik sheriklarimiz bo'lgan "Masdar", "Gezhouba", "China Energy" kompaniyalari bilan ishga tushirdik. Shuningdek, "ACWA Power" bilan "yashil vodorod" ishlab chiqarish loyihasini ham boshlab yubordik.

Eng e'tiborli jihati – ushbu muhim loyihalar davlat-xususiy sheriklik tamoyili asosida, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan amalga oshirilmoqda.

Bugun forum doirasida siz, investorlarimiz uchun qo'shni Qirg'iziston va Tojikistondagi gidroelektr stansiyalarini birgalikda qurish loyihalari taqdimotini o'tkazamiz. Ushbu yo'nalishda barcha davlatlar yetakchi kompaniyalarini ochiq muloqot va amaliy hamkorlikka taklif etamiz.

**Ikkinchisi yo'nalish: bank-moliya sohasi.** So'nggi yillarda mamlakatimizda ko'plab xususiy banklar ochildi. Bozorimizga Yevropaning yetakchi banklari kirib keldi. Qator raqamli banklar o'z faoliyatini amalga oshirmoqda.

Forum doirasida Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan O'zbekistonning yirik banklaridan biri bo'lgan "Asakabank"ni xususiy lashtirish bo'yicha bitim imzolandi. Shuningdek, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Osiyo taraqqiyot banki bilan boshqa yirik banklarimizning transformatsiyasi va xususiy lashtirish jarayonlari faol olib borilmoqda.

Moliyaviy resurslarga talabni qondirish uchun kapital bozorini rivojlantirish bo'yicha yondashuvlar qayta ko'rib chiqilmoqda.

O'zbekistonda xalqaro moliyalashtirish instrumentlarini rivojlantirish ustida ish olib borilmoqda. Xorijiy sarmoyalar oqimi bir necha barobar ortishi, korporativ boshqaruv sifati oshishi, yangi yetakchi bank-moliya institutlari kirib kelishini kutib qolamiz.

### Uchinchi yo'nalish: foydali qazilmalar.

O'zbekiston – mineral resurslar va muhim metallarning katta bazasiga ega mamlakat. Yurtimizda oltin, mis, volfram, kumush, uranning ulkan zaxiralari mavjud. Nodir va noyob minerallar qatorida litiy, magniy, molibden, germaniy, vanadiy va indiy kabi

30 dan ortiq metallning zaxiralari alohida e'tibor qaratishni istardim.

O'tgan oyda Yevropa Ittifoqi bilan o'ta muhim xomashyo sohasida strategik hamkorlik o'rnatildi. Amerika Qo'shma Shtatlari va Buyuk Britaniya bilan ham shunday bitim ustida ish olib boryapmiz.

Bu borada zamonaviy xalqaro tajriba asosida yangi tahrirdagi "Yer osti boyliklari to'g'risida"gi qonun qabul qilinadi. Shu o'rinda, Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankiga bu ishda salmoqli hissasi uchun alohida rahmat aytmoqchiman.

Strategik xomashyolarni chuqur qayta ishlab va qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish uchun yetakchi kompaniyalarni O'zbekistonga taklif etamiz.

**To'rtinchi yo'nalish: mamlakatning IT transformatsiyasi.** Bir yil ichida IT xizmatlari va dasturiy mahsulotlar eksporti ikki barobar oshdi. Kelajakda bu ko'rsatkichni 5 milliard dollarga yetkazishni reja qilganmiz.

IT-park residentlari soni o'n barobar ko'payadi, kelgusida 100 ming yangi ishchi o'rni yaratiladi. Bundan tashqari, uning bazasida xorijiy kompaniyalar uchun Raqamli texnologiyalar xalqaro markazi yaratilmoqda.

Bu borada Saudiya Arabistonining "Data Volt" kompaniyasi bilan "yashil" energiya asosida ishlaydigan "Ma'lumotlar markazi"ni barpo etyapmiz. Bu mamlakatimizni raqamli iqtisodiyotga o'tkazish va sun'iy intellekt asosida texnologiyalarni joriy etishga ulkan turkib bag'ishlaydi, deb hisoblaymiz.

**Beshinchi yo'nalish: transport infratuzilmasini rivojlantirish.** Qulay va zamonaviy transport tizimlarini yaratish vazifasiga ustuvor e'tibor qaratyapmiz.

Temiryo'l sohasida tub islohotlar olib borilmoqda, tarmoqqa xususiy investitsiyalar jalb etish uchun keng imkoniyatlar ochilmoqda. Pullik avtomobil va tezyurur temiryo'llarni qurish bo'yicha qo'shma loyihalar ishlab chiqilmoqda.

Toshkent, Buxoro va Urganch xalqaro aeroportlarini rivojlantirish va yangilarini qurish bo'yicha salohiyatli xorijiy investorlar bilan hamkorlik loyihalari tayyorlanmoqda.

Ma'lumki, biz xorijiy sheriklarimiz bilan birgalikda Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston va O'zbekiston – Afg'oniston – Pokiston temir yo'llarini qurish bo'yicha dastlabki ishlarni boshladik.

Ushbu strategik loyihalar mintaqadagi geoiqtisodiy vaziyatni butunlay o'zgartirib, Markaziy Osiyoni Shimol va Janub, Sharq va G'arb bilan bog'laydigan global tranzit markaziga aylantiradi.

Biz investorlarni va xalqaro tashkilotlarni bu yirik mintaqaviy loyihalarda qatnashishga, Buyuk Ipak yo'lini zamonaviy asosda qayta tiklashga taklif qilamiz.

### Aziz do'stlar!

Yangi O'zbekiston beqiyos imkoniyatlarga ega, adolatli va jadal rivojlanayotgan dunyoviy mamlakatdir.

Biz har kuni hayotga tatbiq etayotgan ulkan g'oya va buyuk orzularimizning asosiy ilhom manbasi bu, eng avvalo, mehnatkash va oliyjanob xalqimizdir.

Shuni alohida ta'kidlashni istar edimki, bugun bu yerda yig'ilgan investorlar o'zlarining eng ilg'or texnologiya va tajribalari, yangi taklif va yondashuvlari bilan bizni faqat olg'a yurishga undaydi.

Sizlarga muhim bir fikrni yetkazmoqchiman: har bir tashabbus, har bir loyihangiz bo'yicha davlatimiz, hukumatimiz a'zolari sizlarga yelkadosh bo'lib, yoningizda turib, ularni to'liq amalga oshirishda yaqindan yordam beradi.

Shunday qilsak, sizlarga ma'qul bo'ladi, deb o'ylayman.

**Investitsiyalar bu mamlakatimiz transformatsiyasining lokomotivi va iqtisodiy taraqqiyotimizning mustahkam drayveridir.**

Hech shubhasiz, bugungi Xalqaro investitsiya forumi va sarmahsul muzokaralar amaliy hamkorligimizni sifat va mazmun jihatidan mutlaqo yangi, yanada yuksak bosqichga olib chiqishiga ishonaman.

Barchangizga anjumanimizda ishtirok etayotganingiz uchun yana bir bor tashakkur izhor etaman.

E'tiboringiz uchun katta rahmat.



# BELARUS HARBIIY DELEGATSIYASI O‘ZBEKISTONDA

Belarus Respublikasi mudofaa vazirining birinchi o‘rinbosari – Qurolli Kuchlar Bosh shtabi boshlig‘i general-mayor Viktor Gulevich boshchiligidagi delegatsiya yurtimizga tashrif buyurdi. Mehmonlarni O‘zbekiston Respublikasi mudofaa vazirining birinchi o‘rinbosari – Qurolli Kuchlar Bosh shtabi boshlig‘i general-mayor Shuxrat Xalmuxamedov qabul qildi.



Uchrashuv davomida tomonlar o‘zbek–belarus harbiy hamkorlik masalalarini muhokama qildi. Shuningdek, uchrashuvda ikki davlat rahbari tashabbusi bilan mamlakatlar o‘rtasidagi do‘stlik, o‘zaro hamkorlik rivojlanishning yangi bosqichiga ko‘tarilgani e‘tirof etildi. Darhaqiqat, o‘tgan yillar davomida O‘zbekiston–Belarus ko‘p rejali munosabatlari yangi darajaga chiqdi. O‘zaro hamkorlikning yuqori dinamikasi qayd etilmoqda. Har ikki mamlakat BMT, MDH, ShHT va boshqa xalqaro tashkilotlarda

bir-birini an‘anaviy ravishda qo‘llab-quvvatlab kelyapti.

Shundan so‘ng mehmonlar “G‘alaba bog‘i” yodgorlik majmuasiga taklif etildi. Belarus vakillari “Matonat madhiyasi” monumenti poyiga gul qo‘ydi. Ikkinchi jahon urushida xalqimiz ko‘rsatgan jasorat va matonat lavhalari aks etgan boy eksponatlar bilan tanishdi.

Keyingi manzil Qurolli Kuchlar akademiyasi bo‘ldi. Bir asrdan ortiq tarixga ega bo‘lgan mazkur maskan mehmonlarda katta taassurot qoldirdi. Boisi bu yerda bo‘lajak

ofitserlar uchun barcha qulay shart-sharoitlar yaratilgan, zamonaviy standartlar asosida harbiy ta‘lim berish yo‘lga qo‘yilgan.

Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti, Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy klinik hospitali hamda Harbiy tibbiyot akademiyasida zamon talablariga mos tarzda yaratilgan o‘quv jarayonlari delegatsiya a‘zolarini befarq qoldirmadi.

Shundan so‘ng mehmonlar Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik-muhandislik bilim yurti, Toshkent

harbiy okrugining “Chirchiq” dala-o‘quv maydoni va “Chimyon” tog‘ tayyorgarligi o‘quv mashg‘ulotlari markazi bilan ham tanishdi.

Bir so‘z bilan aytganda, mamlakatimiz mudofaa sohasida olib borayotgan tub o‘zgarish va yangilanishlar, zamonaviy shart-sharoitlar, harbiy xizmatchilarning kasbiy mahoratini oshirishga qaratilgan qator islohotlar delegatsiya a‘zolarida katta taassurot qoldirdi.

**Katta leytenant  
Islomjon QO‘CHQOROV,  
“Vatanparvar”**





Bugun O'zbekiston Qurolli Kuchlari ko'plab yetakchi xorijiy mamlakatlar bilan harbiy hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ygan. Jumladan, birgina Hindiston misolida so'z yuritadigan bo'lsak, 2019, 2021, 2022- va 2023-yillar mobaynida o'zaro hamkorlikda jami 4 marotaba qo'shma mashg'ulot o'tkazilgani fikrimiz dalilidir. Shu kunga qadar mashg'ulotlar ikki bor yurtimizda tashkil etilgan bo'lsa, qolgan ikkitasi hind zaminida o'tkazilgan. Mazkur taktik-o'quv mashg'ulotlarida har ikki mamlakat harbiy aloqalarini yanada mustahkamlash, jangovar operatsiyalarni rejalashtirish va olib borishda ilg'or tajribalarni almashish hamda terrorizmga qarshi kurashish kabi masalalar ko'rib chiqildi.



## HAMKORLIKDAGI O'ZBEK-HIND



“Do'stlik – 2024” o'zbek-hind hamkorlikdagi mashg'ulotlarning navbatdagisi “Termiz” umumqo'shin dala maydonida bo'lib o'tdi. O'quv mashg'ulotining asosiy kuniga qadar mehmonlar jahon talablariga to'la javob beradigan “Termiz” umumqo'shin dala maydoni bilan yaqindan tanishdi. Tashkil etilgan o'quv nuqtalarida esa ikki mamlakat harbiylari qator mashg'ulotlar o'tkazdi. Ikki tomon harbiy xizmatchilari mashg'ulot rejasida nazarda tutilgan vazifalar bo'yicha puxta tayyorgarlik ko'rib, cho'l hududida birgalikda harakat olib borish ko'nikmalarini shakllantirdi.

Maydondagi kuchli shamol, tabiat inijliklari ham o'quv rejasiga salbiy ta'sir o'tkaza olmadi. Har ikki davlat harbiy xizmatchilari ishtirokida o'tkazilgan sport musobaqalari esa ularning jipsligini oshirishga xizmat qildi. O'tkazilgan musobaqalardan keyin g'oliblar kubok va medallar bilan taqdirlandi. Madaniy-ma'rifiy tadbirlarda o'zbek va hind xalqlarining qadimiy va zamonaviy madaniyati bo'y ko'rsatdi, o'lmas ohanglari yangradi.

O'zbek-hind hamkorlikdagi maxsus-taktik o'quvining asosiy kuniga qadar o'quvning g'oyasi, cho'l sharoitida razvedka-qidiruv harakatlarini olib borishning o'ziga xos xususiyatlari, shartli dushmani qurshab olish va yakson qilishda bo'linmalar bajaradigan vazifalarga oydinlik kiritildi.

Mashg'ulot chegara naryadining muhim ma'lumotlarni yetkazishi bilan boshlandi. Unga ko'ra, shartli dushman davlat chegarasini buzib o'tib, o'zining g'arazli niyatini amalga oshirishni rejalashtirgan. Rejaga asosan ikki mamlakat harbiy bo'linmalariga yangi taktik usul va uslublarni qo'llagan holda, davlatning ichki sarhadlari tomon harakatlanayotgan shartli dushmani yo'q qilish vazifasi yuklatildi.

Yuzaga kelgan vaziyatdan kelib chiqib, hamkorlikdagi operativ shtab hamda yig'ma otryad tuzildi. O'zbek-hind hamkorlikdagi kuchlari belgilangan hududda jangovar vazifa bajarishga kirishdi. O'quv mashg'uloti davomida razvedka-qidiruv ishlarini olib borish natijasida aholi yashash punktida noqonuniy qurollangan shaxslar harakati aniqlandi.







# MASHG'ULOTLARI YUKSAK SAVIYADA O'TDI



Aerorazvedka guruhi tomonidan ularning soni, tarkibi va qo'riqlov tizimini aniqlash maqsadida hududda uchuvchisiz uchish apparati yordamida razvedka ishlari olib borildi.

Shundan so'ng hamkorlikdagi antiterror operatsiyasini o'tkazishga kirishildi. Dastlab qurshovga olingan noqonuniy qurollangan tuzilmalarni yakson etish uchun hududga yaqin joyda O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari qo'mondonligining vertolyoti yordamida desantlashtirish ishlari olib borildi.

Ta'minot guruhi desantlashtirilgandan so'ng manyovrchan harakatlar bilan jangovar ikkilik, uchlik hamda to'rtliklar shartli dushman kuzatuvidan panalagan holda, bosqin hududi tomon zarba berish maqsadida harakatlanib, jangovar pozitsiyalarni egalladi.

Hozirgi zamonaviy to'qnashuvlardan kelib chiqib, ta'minot omborlarini yakson qilish uchun uchuvchisiz uchish apparatlarini keng qo'llash, tirik kuchlardan kam sonli talafot ko'rish orqali g'alabaga erishilmoqda. Mashg'ulotning

keyingi bosqichida ham uchuvchisiz uchish apparatlari orqali shartli dushmanning o'q-dorilar ombori mina tashlash usuli orqali yakson etildi.

Keyingi bosqichida jangovar vertolyotlar juftligi shartli dushman harakat qilayotgan texnika va tirik kuchiga havodan zarba berdi. So'ng shaxsiy va guruh qurollaridan birvarakayiga o't ochildi. Shartli dushmanning qolgan tirik kuchlari esa jangovar guruhlarining ishg'ol harakatlari natijasida yo'q qilindi.

Shu bilan o'zbek-hind hamkorligidagi "Do'stlik - 2024" maxsus-taktik mashg'ulotlari muvaffaqiyatli yakunlandi.

Yopilish marosimida so'z olganlar mazkur mashg'ulotlardan ko'zlangan asosiy maqsad harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarligini yanada oshirishga, qolaversa, o'zaro tajriba almashish, o'ziga xos jang olib borishning uslublarini qo'shinlarda tatbiq etishga xizmat qilganini e'tirof etdi. Faol ishtirok etgan har ikki mamlakat harbiy xizmatchilari munosib taqdirlandi.

**Sherzod EGAMBERDIYEV,**  
"Vatanparvar"





# JASORATGA



Katta yoshdagi insonlardan “Bolakaylar uchun eng yaxshi sovg’a nima?” deb so’rasangiz, kimdir o’yinchoq, yana kimdir shirinlik, ba’zilar esa kitob va hokazo narsalarni sanashi mumkin. Aslida, esini tanigan jajjigina bolajonlar uchun eng yaxshi sovg’a – askarlik libosi. Ishonmaganlar buni amaliyotda bemaol sinab ko’rish imkoniyatiga ega. Harbiylarni ko’rib, har qanday qiziqarli o’yinini ham yig’ishtirib, askarchasiga chakkasiga qo’lini sharaf bilan tutib turgan farzandlarimizga askarlik hayoti eng qiziqarli ertaklardagi voqealar singari ta’sir qilishi aniq. Vatanga qasamyod qabul qilish marosimida bunday vaziyatlarni xohlagancha kuzatish mumkin...



2024 - yil 28-aprel. Erta tongdan Mudofaa vazirligi harbiy qismlari saf maydonlari bayramona ko’rinish olib, muddatli harbiy xizmat burchini o’tashga bel bog’lagan yigitlarning Vatanga qasamyod qabul qilish marosimida ana shu or-nomus, sadoqat, jo’mardlik so’zlari tinchligimiz garovi sifatida yangragani shubhasiz. Ota-ona, yaqin qarindoshlar, yor-u do’stlar hamda komandirlari qarshisida Vatanni himoya qilishga, xalqimiz va Prezidentimizga sodiq bo’lishga ont ichgan yoshlar o’z hayot yo’lining yangi pog’onasiga qadam tashladi. Bu unutilmas onlar tadbirlarda ishtirok etgan jajji o’g’il-qizlar xotirasida bir umrga muhrlanib, kelajakda ular orasidan ham haqiqiy Vatan posbonlari yetishib chiqishiga zamin yaratuvchi omil sifatida davom etaveradi. Muddatli harbiy xizmatchilarda davlatimizning muqaddas ramzi bo’lmish bayroq qarshisida buyuk ajdodlarining pok ruhlari

hurmati, Vatan oldidagi burchini halol bajarishga bel bog’lab, vijdoni, or-nomus hamda sha’nini o’rtaga qo’yib, O’zbekiston Respublikasiga, xalqiga va Prezidentiga bir umr sodiq bo’lishga, har qanday mashaqqatli sinovlarda, qiyinchiliklarda el-yurtning yuksak ishonchini oqlashga yaqinlari hamda keng jamoatchilik guvohligida ont ichdi. Qisqa qilib aytganda, yuzlab yoshlar qasamyodiga bag’ishlangan tadbirlar minglab yurtdoshlarimizga unutilmas bayramona kayfiyat ulashdi.

Mamlakatimizning turli hududlarida bo’lib o’tgan Vatanga qasamyod qabul qilish marosimida Mudofaa vazirligi Jamoatchilik kengashi a’zolari, harbiy xizmatchilar, askarlik libosini kiygan yoshlarning yaqin qarindoshlari ishtirok etdi. Tadbir davomida so’zga chiqqanlar askarlik hayotiga qadam tashlagan, ona Vatanni qo’riqlashdek sharafli burchni o’tashga otlangan yigitlarni qutladi. Ana shunday tadbirlar Markaziy harbiy okrugga qarashli harbiy qismlarda ham bo’lib o’tdi. Bundan bir necha kun avval egniga harbiy libos kiygan yoshlar qisqa vaqt davomida o’z tirishqoqligi, bilimi va salohiyati orqali harbiylik hayotining sir-asrorlarini puxta o’zlashtirishga harakat qilmoqda. Bu Vatanga qasamyod qabul qilish

marosimida ularning ota-onalariga topshirilgan tashakkurnomalarda o’z isbotini topdi.

\*\*\*

O’tgan davr mobaynida muddatli harbiy xizmatchilar harbiy qismdagi nazariy o’quvlardan tashqari “Forish”, “Sazagan” va “Kattaqo’rg’on” poligonlarida otish va granata ulotirish mashg’ulotlarida faol qatnashdi. Xizmat burchini Kattaqo’rg’on garnizonida o’tayotgan surxondaryolik Jonibek Samadov, namanganlik Alijon G’ulomov, andijonlik Ismatillo Hokimjonov komandir va serjantlardan olgan bilimlarini har tomonlama namoyon etdi. Durzodbek Muhammadjonov (Andijon viloyati Izboskan tumani), Davlatbek Risboyev (Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumani), Asadbek Yusupov (Qoraqalpog’iston Respublikasi Amudaryo tumani) singari yigitlar esa “Sazagan” poligonida jangovar otish mashqlarida haqiqiy jangchiga xos harakatlarni amalga oshirdi.

Xuddi shu kabi jarayonlarni “Forish” tog’ poligoni o’quv nuqtalarida ham kuzatdik. Mashg’ulotlardan oldin ofitserlar va yo’riqchi-serjantlar nazorati ostida jangovar qurollar sinchkovlik bilan ko’zdan kechirildi. O’ziga ishongan askarlardan bir nechtasi ana shu jarayonda nishonlarni aniq mo’ljalga olishini aytib, maqtanib qo’rganlari ham topildi. Ana shundaylar





# MUNOSIBLAR AHDI



orasida Javohir Rasulov (*Farg'ona viloyati Beshariq tumani*), Xurrambek Jumanov (*Farg'ona viloyati Bag'dod tumani*), Tohir Halimov (*Qashqadaryo viloyati Qarshi shahri*) har tomonlama xizmatdoshlariga namuna bo'ldi. Ayniqsa, Tohir Halimov voha polvonlariga xos jussasiga qaramay, chaqqon harakatlar bilan otish nuqtasida qoidalarda ko'rsatilgandek joylashdi. U so'zining ustidan chiqqan holda barcha nishonlarni aniq mo'ljalga oldi.

Joylarda bo'lib o'tgan tadbirlar davomida o'z sulolasi an'anasining davomchilari, harbiy sohaga ilk bor kirib kelayotgan yoshlarning borligi ko'zni quvontiradi. Ularning barchasi yurtimizni, tinchligimizni qo'riqlashdek ezgu maqsad yo'lida xizmat cho'qqisining yuqori pog'onalarini zabt etishga bel bog'lagan. Mashg'ulotlar davomida ham, Vatanga qasamyod qabul qilish jarayonida ham ularning ko'zlari kelajakka ishonch bilan porlaganini ko'rdik. Farzandining haqiqiy

Vatan posboni bo'lganini ko'rgan, yonida turib his etgan ota-ona uchun ana shu lahzalarda Vatan va baxt tushunchasi o'zaro uyg'unlashib ketganday bo'ldi. Farg'onalik Javohir Rasulovning ota-onasi Boyirjon Abdurahmonov va Nafisa Rahimovaning quyida aytgan so'zlari buning yaqqol misolidir:

- O'g'limizning harbiy xizmatda erishgan yutug'idan boshimiz ko'kka yetdi. Mayor Otabek Muhammadiyev, kapitan Abdulaziz Shoyoqubov, leytenant Muhammadsodiq Turg'unovning Javohir haqida bildirgan iliq fikrlari biz uchun har qanday mukofotdan a'lo bo'ldi. Go'yoki farzandimiz bir oy ichida ulg'ayib qolgandek. Aslida ham shunday. Yutuqlarini davom ettirib, keyingi faoliyatini Vatan himoyasiga bag'ishlamoqchi ekanini aytganida, yanada faxrlidik. Fursatdan foydalanib, barcha ota-onalarga shunday baxt nasib etishini tilab qolamiz.

Shu kuni Samarqandda yigitlik burchini o'tayotgan Shahzodbek G'ofurjonovning ota-onasi G'ulomjon Rahimjonov va Jamila Rahimjonova Toshkent tumanidan Vatanga qasamyod qabul qilish marosimiga yetib keldi.

- Shahzodbek tufayli yurtimizning tarixiy shahriga safar uyushtirish imkoniyatiga ega bo'ldik. Farzandimizning yoshligidan harbiylikka jiddiy qiziqishini atrofda qilgan qatori biz ham hamisha qo'llab-quvvatlab kelganmiz. Bugun xizmatdoshlari bilan bir safga tizilib,

navbatma-navbat Vatani himoya qilishga ahd qilayotgan yigitlarimizni ko'rib, ko'zimiz quvondi. Shahzodbek xizmatga kelganiga ham bir oydan oshganiga qaramay, harbiylikning ancha-muncha sirlarini o'rgangani ko'rinib turibdi. Qurolini ko'ksiga mahkam bosganicha safda qadam tashlashi, komandirlariga harbiy murojaat qilishi va hokazo. O'zim sizlarni Samarqandning go'zal joylariga olib boraman, deya mehribonchilik ko'rsatishini aytmaysizmi?! Bugun turli viloyatlardan kelgan ota-onalar qatorida biz ham harbiy qism komandirining tashakkurnomasini oldik.

Tarixdan va hayotda kuzatilgan voqealardan kelib chiqqan holda eng buyuk jasoratlar Vatan himoyasi yo'lida ko'rsatilishiga ko'plab misollar keltirish mumkin. Bolaligidan askarchasiga qo'lini sharaf bilan tutib turgan yoki askarlarga monand qadam tashlayotgan farzandlarimizning, Vatanga qasamyod qabul qilayotgan yigitlarimizning xatti-harakatlari ham buyuk jasoratning debochasidir, balki. Chunki Vatan uchun ko'ksini qalqon qilgan qahramonlarimiz ham aynan mana shunday tug'ilib o'sgan yurtiga, ota-onasiga, xalqiga sadoqat namunalari ko'rsatilgan lahzalar albatta bor bo'lgan va bundan keyin ham ana shunday davom etaveradi.



# KURSANTLAR AMALIY MASHG'ULOTLARDA

Harbiy ta'lim darajasini yanada yuksaltirish, ta'lim sifatini ilg'or xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, barqaror iqtisodiy o'sishga erishish hamda bu boradagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish Mudofaa vazirligining oldiga qo'yilgan asosiy vazifalaridan biridir.



Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy institutida olib borilayotgan ishlar, yangi innovatsion loyihalar hamda kursantlarning zamonaviy ta'lim olishlarini jadallashtirish ilg'or tajribalar asosida tashkil etilmoqda.

Qurolli Kuchlarga yetuk mutaxassis kadrlarni tayyorlash maqsadida, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti professor-o'qituvchilari va 5-bosqich kursantlari ishtirokida Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtida akademik tajriba almashish yuzasidan amaliy mashg'ulotlar o'tkazildi.

Amaliy mashg'ulotlardan ko'zlangan asosiy maqsad, olingan nazariy bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash, takomillashtirish, amaliyotda qo'llash, kursantlarning zamonaviy axborot texnologiyalari sohasidagi bilimlarini oshirish, bo'lajak

ofitser uchun zarur bo'lgan harbiy-kasbiy va axloqiy-ruhiy sifatlarni shakllantirishdan iborat.

Bo'lajak ofitserlar o'qotar qurollardan amaliy otish, maxsus trenajyorlarda mashqlar bajarish kabi mashg'ulotlarda sinovdan o'tdi. Shuningdek, dala chiqish mashg'ulotlari davomida kursantlarning ma'naviy-ruhiy holatini ta'minlash hamda madaniy dam olishlari bo'yicha ham tadbirlar o'tkazildi.

Amaliyot mashg'ulotlari yakunida kursantlarga bugungi kunda xalqaro maydonda yuz berayotgan harbiy-siyosiy vaziyatni to'g'ri tahlil qilish, har qanday holatda nostandart qaror qabul qilish, ta'lim olishlari uchun yetarli darajada shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratilgani, bulardan to'g'ri va oqilona foydalanish kerakligi ta'kidlandi.



**Mayor**  
**Sherqo'zi XAKIMOV**  
Axborot-kommunikatsiya  
texnologiyalari va aloqa  
harbiy instituti



## Jasorat – millat g'ururi va iftixori



Poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi Beshqayrag'och mahallasida istiqomat qiladigan 94 yoshli Po'latxon aya Shamsiyeva har yili Mustaqillik tantanasini intiqlik bilan kutadi. Shodiyonani tinchlik, hurlik nishonasi deb bilgan onaxon bu bebaho ne'mat qadrini juda yaxshi biladi. Chunki u ham Ikkinchi jahon urushi jabrini tortgan insonlardan. O'sha mash'um muhoraba

ularning oilasiga ham kulfat yog'dirgan: to'rt nafar alpqomat akasi urushga ketib, qaytib kelmadi, onasi vafot etdi, uka-singillari har yoqqa tarqalib ketdi...

## BEDARAK KETGAN TO'RT ASKAR HIKOYASI



12 yoshli qizaloq uchun bu zarbalarga dosh berish oson bo'lgan, deysizmi? Lekin Po'latxon taqdirning hukmiga ko'nib yashadi. Zero o'zi bola bo'lsayam, yuragi keng, metin bardoshli edi. Oradan qancha yillar o'tdi. Ulg'aydi, oilali, bola-chaqali bo'ldi. Lekin ayolning qalbidagi yo'qotishlar, ayriliqlarning o'rmi to'lmadi. Xotiralari jonlanganda onaxon o'tmishini ko'zda yosh bilan eslashi shundan.

### BAXTSIZ BOLALIK XOTIRALARI

– Yurtga urush xabari yoyilganida 11 yoshda edim, – deya xotirlaydi Po'latxon aya. – Belida quvvati bor erkak zoti borki, frontga yo'l olgan. Bir yilning ichida Sadridin, Kamoliddin va Jamoliddin akalarim birin-ketin urushga ketdi. Dadamning oshqozoni kasal bo'lgani sababli urushga olinmagan. O'sha vaqtda Jamoliddin va Sadridin akalarim uylangandi, Kamoliddin akam institutda o'qirdi. Jaloliddin akam esa armiyada edi. Bizga ma'lum bo'lishicha, urush boshlanishi bilanoq Jaloliddin akam ham frontga o'tkazilgan.

Ulardan besh-olti oy xat-xabar olib turdik. Bir gal Jaloliddin akam xatida: "O'yijon, chang'i uchsam, urishardingiz. Chang'i uchishim bu yerda foyda berdi. Musobaqada birinchilikni oldim. Keyin birinchilikni olganlardan besh kishini razvedkaga yubordilar. Ularning ichida menam bor edim. Uch kishi yo'lda qolib ketdi. Ancha o'rmonzordan yurib, anhardan o'tib, dushman joylashgan hududni razvedka qilishim kerak edi. Borsak, anhorning suvi muzlamabdi. Kutishga vaqt yo'q edi. Aksiga olib, anhor atrofi yaxshigina tepalik ekan. Oxiri anhor chetini yer bilan baravar qilib tekisladik. Keyin chang'ida uzoqdan kuch bilan uchib kelib, anhardan o'tdim. Razvedka qilib qaytib kelganimizdan keyin menga orden berishdi", deb yozibdi. Oxirgi yozgan xatida esa: "O'zbekistondan qorabayir otlar keldi. O'tliq askar tuzilyapti. Men o'shanga brigadir bo'ldim. Duoyi jonimni qilib turing, dada, to'yga kirib ketyapman", deb yozganlarini eslayman. Biz xat yozolmasdik. Chunki akalarim: "Manzilimizni tez-tez o'zgartiryapmiz, xat yozmanglar", degandi-da.

Keyin akalarimdan xat kelmay qo'ydi. Onam juda siqilib qoldi. Ko'p yig'lardi. Yaxshi eslayman, bir gal kechasi onam oy chiqqanda hovlida unga qarab: "Oymomajon, oymoma, men seni ko'ryapman, sen meni ko'ryapsanmi? Urushda yurgan bolalarim ham seni ko'rib turibdimikan? Sen menga ularning xabarini yetkaz", deb rosa yig'lagandi. Buni eshitgan dadam: "Onasi, nega buncha kuyunasan-a, axir ko'pga kelgan to'y-ku. Sabr qilishdan boshqa nima ilojimiz bor", deb yupatgani yodimda. To'rt birday o'g'li nom-nishonsiz ketadi-yu, dadamning "ko'pga kelgan to'y", deb o'ziniyam, boshqalarniyam

ovutishini ko'ring. Qanday bag'rikeng inson bo'lgan ekan otam...

Har gal oyga qarasam, onamning hovlida yig'lab unga iltijo qilib turgan siymosi gavdalanadi. O'zimni yig'idan to'xtatolmayman. Bilasizmi, onamning shu ko'rinishini hecham unutmadi...

Odam kimgadir ichikib o'lib qolishi mumkinligini eshitganmisiz? Men o'zim guvoh bo'lganman shunga. Sadridin akamning Muruvvat ismli besh yoshli qizi bor edi. Dadasini shunaqa qattiq yaxshi ko'rardi. Shu jiyanim ham dadasi urushga ketganida usizlikka hech ko'nikolmadi. Har kuni dadasini kutarkan, kechasiyam eshikni ochib qo'yarkan, dadam keladi, deb. Joy soldirib, "bu dadamning joyi", deb hech kimni yotqizmas ekan. U dadasini ko'p kutdi, zor kutdi. Afsus, qattiq sog'inch, ichikish sabab yosh joni uvul ketdi. Esiz, esiz...

### KUTILMAGAN KULFAT

– Hayotimiz borgan sari og'irlashardi. Oilada ota-onam va to'g'iz farzand yashardik. Harqalay uyda bug'doyimiz bor edi. O'sha jonimizga ora kirardi. Bir kuni onam ro'zg'orga yordam bo'ladi deb non qilib sotmoqchi bo'ldi. Katta tog'orada xamir qordi. Kech tushib qolgan edi. Dadam o'tin yorayotganda moychiroqni yerga qo'yib qo'ygan ekan. Tandirga o't yoqayotgan onam moychiroqni yerdan olaman desa, u birdan lovullab yonib ketgan (keyin bilishimizcha, dadam moychiroqqa quyishga kerosin topolmay, benzin quygan ekan). Onamning ko'ylagi yongan, qo'l-oyoqlari kuygan. Tezda shifoxonaga olib ketishdi. Lekin onam tuzalmadi. Vafot etdi...

Onamning vafotidan keyin uyimiz huvullab qoldi. Men birpasda oilaning kattasiga aylanib qoldim. Onasizlik qiyin ekan. Uka-singillarimning mung'ayib turgan ko'zlariga qarashga yuragim zirqirardi. Fazliddin ukam chaqaloq edi. Uni ikki yil o'zim qarab katta qildim. Yildan yilga ro'zg'or tebratish qiyin bo'lib boraverdi. Qiyinchilik, ochlik sabab men ham kolxozda ishlashga chiqdim. Dalada o'toq qilardik, buzilgan uylardan chiqqan guvalalarni shudgorga tashirdik. Qarang, yosh bola ekanman-da, hamma zambilda guvala tashisa, men ko'p chek (ish haqi) beradi, deb guvalalarni qopga solib, yelkada tashirdim. Kechgacha ishlab, dalada bir mahal beriladigan atalani ichmay, uyga olib kelardim, ukalarimga ilinardim. Uyga kelib, hammamiz ataladan ikki qoshiqdan ichib uxlardik. Bunaqada jon saqlash qiyin edi baribir. Oxiri dadam ukalarimni qarindoshlarimizga tarqatishga majbur bo'ldi. Faqat kenja ukamni begona oila asrab oldi...

O'shanda uyda dadam, men va Sharofiddin ukam qolganmiz. Eh, oilada uch kishi qolib ham, yaxshi yashadik deyolmayman. Haqiqiy ochlik, xo'rlikni ko'rdik. Birovga birov bir tishlam non beradigan mahal emasdi-da. Bo'lmasa, dadam yuragini huvullatib jonidan aziz farzandlarini birovlariga berib

qo'yarmidi, – onaxon tin olib, sukutga cho'mdi.

– O'shanda meni bir qarindoshimiz asrab olgan, – deya suhbatga qo'shiladi onaxonning singlisi Mavzura aya. – Besh yoshda edim. Lekin uydan kimlar olib chiqib ketgani, yangi xonadonga borganimizda tutingan onam: "Endi sening isming Mavzura emas, Ra'no bo'ladi", deganlari esimda qolgan. Tutingan dadam ham bu paytda urushda bo'lgan. Bitta opam bor edi. U bilan tezda ahilinoq bo'lib ketdik. Onam meni yaxshi ko'rardi, doim erkalatardi. Lekin aqlimni taniganimda bu uyga kelgan emasmanni, o'zimizning uyimizni, dadamni, opamni, ukalarimni sog'inardim. Vaqtlar kelib opa-ukalarim bilan qayta topishdik. Jon-jigarlik rishtasi tortarkan-da baribir.

– Opa, shaftoli danagini eslaysizmi? – Sharofiddin bobo Po'latxon ayaga yuzlanadi. – O'shanda ko'klam edi. Katta daraxt tagida bir hovuch shaftoli danagini ko'rib qolganmiz. Ana endi xursandchiligimizni ko'ring. Uyga kelib, danakni chaqib yeganmiz. Bo'lmasa, shaftolining mag'zi qanday achchiq bo'ladi. Uni yeb bo'ladimi? Lekin och bo'lganimiz uchun danak mag'zining achchiqligini ham sezmbamiz. Shu kuni kechasi bilan mazamiz qochib, qayt qilib chiqqanmiz. O'sha voqeani eslasam, haliyam dahshatga tushaman.

Urush vaqtda odamlarning kunjara yeb, ishib o'lganlari haqida yoshi kattalar aytib bergan bo'lsa kerak. Biz ham kunjara yeganmiz. Allohga aytganimiz bor ekan, tirik qolganmiz.

– Kolxoz juda nomardlik qilardi, – deydi Po'latxon aya. – Anavi yerda kartoshka, pomidor pishib yotsayam, odamlarning bitta olib yeyishiga qo'ymasdi. Hozir o'ylasam, biz inson hayoti, qadri bir chaqalik qimmatga ega bo'lmagan shunday davrlarda yashagan ekanmiz. Taqdirimizni qanchalar o'zgartirdi-ya bu davr...

### QAYTMAS BO'LIB KETGAN NORLARIM

– Akalarim mehribon, kuyunchak, ishbilarmon, oilaparvar yigitlar edi, – deya suhbatni davom ettirdi Po'latxon aya. – Ularni unutib bo'larkanmi? Dadam rahmatli tiriklik chog'larida ular haqida ko'p so'rab-surishtirdi. Lekin tayinli javob ololmasdi shekilli, uyga mung'ayib kelardi...

Jaloliddin akam boshqacha edi. G'ayrati ichiga sig'maydigan yigit bo'lgan. Qanday ishga qo'l urmasin, doim uddalardi. U Pedagogika instituti talabasi edi. O'qishdan ta'tilga chiqqan vaqtlarida umuman bo'sh yurmagan. Pilla boqardi, bug'doy o'rardi. Bir gal o'zi ko'ngilli bo'lib Farg'ona kanalining qurilishida ishtirok etish uchun ketgan. Adashmasam, 1938 yoki 1939-yil edi o'shanda. Akam Farg'ona ketganida unga armiyaga chaqiruv qog'ozi kelgan. Dadam o'z vaqtida armiyaga bormasa, qamab qo'yishlaridan qo'rqib, akamni olib kelgani esimda...

Ular dom-daraksiz ketdi. Qo'limizda hech bir suratlar qolmadi. Bir necha yil oldin "G'alaba bog'i" rahbariyatiga akalarimning daragini topish maqsadida xat yozgandik. Faqat Sadridin akam haqida ma'lumotga ega bo'ldik. Urushda 794-o'qchi polk qizil armiya askari bo'lgan ekan. 1942-yil sentabr oyida Latviya Respublikasidagi birodarlik qabristoniga dafn etilibdi. Bir dona suratini ham oldik...

Bir kuni ukam va singlim bilan "G'alaba bog'i"ga bordik. U yerda bedarak ketgan askarlar keltirilgan qatorida akalarimning ism-familiyasini topdik! O'sha vaqtda go'yo atrof yorishib ketgandek bo'ldi. Ko'nglim bo'shab, shunday yig'ladim. Axir men ularni salkam sakson yil kutdim. Tiq etsa, eshik qarab zor bo'ldik. Kutib-kutib, uchrashgan joyimiz esa shu yer bo'ldimi?..

### SADOQATNING KO'RINISHI

Men Ikkinchi jahon urushi davrida gul umrini frontga ketgan turmush o'rtog'ini kutish bilan o'tkazgan ayollarning hayotini sadoqatning ko'rinishi, o'zlarini esa vafo timsoli degan bo'lardim. Ulug' shoirimiz o'z she'rlarining birida:

*Sevgidan yetim-u  
umrdan yarim,  
Qurigan ko'ksida  
yolg'iz belanchak.  
Abadiy firoqni,  
hayhot, do'stlarim,  
Abadiy visol deb  
bildi kelinchak...*

deya shunday buyuk qalb egalari ta'riflagan bo'lsa, ne ajab.

– Jamoliddin va Sadridin akalarimning turmush o'rtog'larini biri 24, yana biri 22 yoshda beva qoldi, – deb xotirlaydi Po'latxon aya. – Lekin qayta turmush qurmadilar. Butun umr akamning chirog'ini yoqib o'tdilar. Qarang, qanday sadoqatli Hazrati inson bo'lganlar? Bolalarini uyli-joyli qilib, nevara-chevara ko'rdilar. Ular bilan qarindoshlik rishtalarimiz uzilmadi...

Jaloliddin va Kamoliddin akam uylanmay, urushga ketgani haqida gapirgandim sizga. Lekin ularning ko'ngil qo'ygan qizlari bor edi. Onam ham bilardi ular haqida. Urushdan kelsa, akalarimning to'yini qilamiz, derdik. Ishonasizmi, shu qizlar ham akalarimni kutib, gul yoshligini o'tkazdi...

Aytaversam, xotiralarim bisyor. O'sha og'ir kunlarni bugungi farovon kunlar bilan solishtirsa, dahshatli ertakka o'xshaydi. Mayli, ertak bo'lib qolsin. Shukur, Vatanimiz tinch. Bundan buyog'igayam elimizda faqat yaxshi kunlar bo'lsin. Shu yurtida istiqomat qilayotgan barchaga farovon, to'kis hayot tilayman. Hech kim g'am ko'rmasin, ayriliq azobini tortmasin, – onaxon qo'llarini ochib, uzoq duo qildi. Biz esa mustahkam sog'liq tilab, ular bilan xayrlashdik.

**Podpolkovnik  
Gulnora HOJIMURODOVA  
suhbatlashdi.**



# G'ozg'onlik Tursun bobo

# 102 yoshda

Tursun bobo Ergashev 1922-yilning 29-noyabrida Navoiy viloyatining Nurota tumanidagi G'ozg'on qishlog'ida tavallud topdi. Butun umrini yoshlar ta'lim-tarbiyasiga bag'ishlagan, Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi Tursun bobo 101 yoshni qarshiladi. Shu munosabat bilan otaxon istiqomat qilayotgan xonadonda tashkil etilgan tadbirda Tursun boboning qutlug' yoshi bilan tabriklagani uning yaqinlari, mahalladoshlari tashrif buyurdi.

Fidokorona mehnatlari, yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga katta hissa qo'shgan, umrini yaxshilikka sarflagan Tursun boboning ko'ksini "Do'stlik" ordeni, "Jasurligi uchun" medali va bir qator ko'krak nishonlari bezab turibdi. Ushbu kun munosabati bilan G'ozg'on shahri hokimi Azim Bazarov hamda sektor rahbarlari otaxon xonadoniga tashrif buyurib, qutlug' yoshi bilan tabrikkladi hamda esdalik sovg'alar topshirdi.

Tursun boboning umr yo'li yoshlarga haqiqiy ibrat maktabi bo'ladi, – deydi "Shayxon" mahalla fuqarolar yig'ini raisi Valijon Safoyev. – Pensiya chiqqanidan so'ng ham bir necha yil "Nuroniylar" raisi sifatida faoliyat ko'rsatgan Tursun bobo katta hayot yo'lini bosib o'tdi. Nafaqat g'ozg'onliklar, balki Navoiy viloyati ahli qalbiga ham o'zining shirinso'zligi, mehribonligi bilan kirib bordi.

Darhaqiqat, katta va boy hayotiy tajribaga ega bo'lgan otaxon hozirgi kunda ham yoshlardan, mahalladoshlaridan o'z maslahatlarini ayamaydi. Ularni g'ayratli, shijoatli bo'lishga, ezgu ishlarga bosh bo'lishga chorlamoqda. Mahalladagi har bir o'tkaziladigan to'y-ma'rakalarga o'zi kayvonilik qiladi, tadbirlarning kamxarj va kamchiqim holda o'tishiga undaydi. Barchani isrofgarchiliklardan qaytaradi. Tursun Ergashev 7 nafar farzandni tarbiyalab, el xizmatiga qo'shgan. 30 nevara,

84 evara va 12 chevaraning suyuqlik bobosi sifatida katta obro'-e'tiborga ega.

– Avvalo, davlatimiz rahbariga katta rahmat, – deydi otaxon. – Yurtimizda inson qadri uchun yaratib berilgan imkoniyatlar, shahar-u qishloqlarimiz tobora go'zallashib borayotganini ko'rib, dildan quvonaman. Ayniqsa, yoshlarning chuqur bilim olishlari uchun yaratib berilayotgan imkoniyatlar katta. Ular bu imkoniyatdan samarali foydalanishlari kerak. Yana shuni aytmoqchiman, 1945-yilning 9-mayida "g'alaba" degan so'zni eshitganimda qanchalik quvongan bo'lsam, Prezidentimiz olib borayotgan dono siyosat tufayli mamlakatimiz yanada farovonlashib borayotganidan shunchalik xursandman. Bularning barchasiga shukrona keltirishimiz kerak.

Tursun Ergashev 1941-yilda urushga ketib, Janubiy Ural harbiy okrugida xizmat qilgan. Donbas, Kiyevni ozod qilishda va Chexoslovakiya janglarida ishtirok etgan. U janglarda yaralangach, gospitalda davolanib, 1945-yil 31-aprelda tug'ilgan joyi – G'ozg'onga qaytib kelgan.

G'ozg'onlik mohir sangtarosh, "El-yurt hurmati" ordeni sohibi, "O'zbekiston Respublikasi xalq ustasi" Tohir hoji Rahimovning ta'kidlashicha, Tursun otaning tarbiyasini



olgan farzandlar el xizmatida tanilgan tadbirkorlar. Ularning nevara va evaralari ham xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida fidoyilik bilan xizmat qilib kelyapti. Barchasi otaxon maslahatlariga, pand-nasihatlariga amal qilib, kam bo'lmadi.

Darvoqe, kimki jamiyat hayotida o'z o'rnini topib, xalqiga sadoqat bilan xizmat qilsa, albatta xalq e'zoziga muyassar bo'ladi. Tursun ota – allaqachon ana shunday fidoyi insonlar sirasidan joy olgan zamonamiz qahramonlaridan biri.

**Shavkat SULTONOV,**  
"Nuroniylar" muxbiri

"Urushdan keyingi qiyinchiliklarni oz bo'lsa ham yaxshi eslayman. 10-11 yoshlarda edim, onam ukamni olib, g'o'za chopig'iga borardi. Dalaning boshida ikki tup katta tol daraxti bor edi, shunga onam belanchak yasab, ukamni uxlatib, g'o'za chopishga tushib ketar edi. Qaysi bola yig'lasa, ovutishga yordam berardim, agar ko'nmasa, onasini aytib kelardik. Onam kuni bo'yi g'o'za chopib, kechqurun uyga qaytardik".



# Otalarimiz matonatini eslab

Ahmadqul bobo ot bilan g'o'zani kultivatsiya qilar, begona o'tlarni daladan chiqarib tashlar edi. Bir kuni tushlikka chiqqanimizda urushga borganini so'zlab berdi.

– Biz 1944-yili kuzda Kiyev shahrini ozod qilishimiz kerak edi. Daryoning u tomonidagi tepalikda nemislar, biz bu tomonidagi pastlikda, yalanglikda joylashgan edik. Tun qorong'isida qayiq va sollar yordamida daryodan suzib o'tishni boshladik. Qayiq va sollar sig'maganlar yog'ochlar bilan suvning ichida qo'li bilan harakatlanib, daryodan kechib o'ta boshladi.

Tepamizda fashistlar yomg'irdek o'q yog'dirib turdi. Orqaga qaytish mumkin emas. Boshimni yog'ochga pana qilib, suza boshladim, suv juda sovuq edi.

Bizdan oldingi qismimiz daryodan o'tib, "Ura!" deb olg'a harakatlandi. Biz ham yog'ochlar yordamida qirg'oqqa yetib oldik va hamma qatori urushga kirishdik. Ertalab tong otguncha fashistlarni ancha orqaga surib tashlab, qirg'oqni egalladik. Shunday qilib, 3-4 kunda Kiyev shahrini ozod qildik. Shundan keyin Polsha chegarasigacha bo'lgan urushlarda

qatnashdim. Polsha chegarasiga borganda oyog'imdan yaralanib, gospitalga tushdim va bir necha oy davolanib, nogiron bo'lib uyga qaytib keldim. Ne-ne yigitlar mardlarcha halok bo'ldi. Bunday tinchlik kunlarga biz osonlikcha erishgan emasmiz: minglab navqiron yigitlar, otalar, farzandlar nobud bo'ldi, – deya ko'ziga yosh olib, so'zini tugatdi Ahmadqul bobo Tursunboyev.

Ahmadqul bobo Tursunboyev ikki o'g'il va ikki qizni o'stirib, 65 yoshida vafot etdi. Zamonaning zayli bilan men Kiyev shahriga bordim. O'sha

Ahmadqul bobo aytgan fashistlar turgan tepalikni o'z ko'zim bilan ko'rib, Dnepr daryosining qirg'oqlarini aylandim. Ahmadqul bobo aytib bergan urush voqealari, askarlarning daryodan kechib o'tishi ko'z oldimda bir-bir namoyon bo'ldi.

Jonfido qilib, biz uchun tinch hayotni ta'minlab ketgan otalarimiz xotirasi umrbod yodimizda bo'ladi. Biz, farzandlar otalarimiz jasoratini abadiy unutmaymiz!

**Allanazar XUDOYBERDIYEV**  
Bekobod tumani,  
"Achamayli" MFY




## Urush xotiralari

99 yoshni qarshilab  
100 ga yaqinlashgan  
Muhiddin ota  
Do'sanboyev Toshkent  
viloyatining O'rta  
Chirchiq tumani  
O'rtasaroy qishlog'ida  
tug'ilgan. O'shanda  
milodiy 1925-yil edi.  
Hozirgi kunlarga  
qiyoslaganda  
tamoman o'zga davr.

1941-yili urush boshlanganda har qancha talab qilmasin, uni frontga jo'natishmaydi. Chunki o'smir edi.

– Nihoyat, 1943-yil 23-fevralda men ham tengdoshlarim qatori urushga otlandim, – deydi Muhiddin ota xotiralarini birma-bir yodga olib. – Rossiyaning bir qancha shaharlari, Ukraina, Moldaviya, Polsha, Germaniyada bo'ldim. Shuncha masofani deyarli piyoda bosib o'tdik. Kuniga 20 kilometr yurardik. Askarning uyi dala, okop, blindaj bo'larkan. To'shaging xas-xashak, somon, yopinchig'ing shnel ekan. Bir kuni okopda yotibmiz, sovuq, zax. Ostimizga nimadir topish mening zimmamga tushdi. Yaqindagi qishloqning bostirmasiga kirdim. Somon uyilib turgan ekan. Bir quchoq ko'tarishim bilan uning ostidan bir odam dodlab o'rnidan turdi, men ham qichqirib yuboribman. Ikkimiz ikki tomonga o'tildik. Qarasam, dushman askari, bo'yniga qaroli osilgan, somon tagiga yashirilib olgan ekan. Hushimni yig'ib, uni tappa bosdim. Qurolini olib, somon o'rniga asir bilan qaytdim. Bu ishim uchun II darajali "Qizil Yulduz" ordeni bilan taqdirlangan edim.



Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi Muhiddin ota Do'sanboyev bu hikoyalarini undan xabar olish, xonadon yumushlariga ko'maklashish uchun Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtidan borgan bir guruh harbiy xizmatchilarga aytib berdi. Shu kuni harbiylar otaxonga sovg'alarini topshirib, urush, uning ayanchli oqibatlarini, jangchining qiyin vaziyatlardagi holatlari haqida hayotiy voqealarni eshitib, xonadon tomorqasidagi ishlarga yordamlashdi.

– Otam urushdan qaytgach, qishloq xo'jaligi institutida o'qib, ko'p yillar shu sohada ishladi, – deydi o'g'li Lutfiddin Do'sanboyev. – 25 yil, 1968-yildan 1991-yilgacha kolxoz raisi bo'ldi. 80-yillar "o'zbeklar ishi" bo'lganda tumanimizdan faqat to'rtta rais qamalmadi. Shularning biri otam edi. Tergovchilar xato topolmagan.

# ASKARNING UYI DALA, OKOP, BLINDAJ

Bir voqea. Qaysidir yili kolxozning "plani" to'lishiga bir foiz paxta yetishmaydi, bu endi 10 tonnami yo 15... bilmadim. Xullas, raykom otamga qo'shib yozishni buyuradi. Yo'q paxtani bor qilib, hisobot ishda haydalsam haydalaman, ammo qo'shib yozmayman, deb qat'iy turadi. Shunday to'g'riligi uchunmi, Gdlyan, Ivanovlar otamdan ayb topa olmadi. Keyin besh-olti yil mahallamizga raislik qildi.

– Otam urushdan keyin 5 yil Germaniyada qolib xizmat qilgan. Biz qiziqib, nemislar haqida so'radik. Ularni dushman, yomon odamlar deb bilardik-da. "Nemislar ham o'zimizga o'xshagan oddiy, to'g'ri xalq. Ularga zararing tegmasa, senga ham tegmaydi", deydi otam. Rahmatli onam bilan bizni oq yuvib, oq taradi, to'g'ri bo'lishni, odamlarga yaxshilik

qilishni uqtiradi doim. Otam mening faxrim, suyangan tog'im, – deydi qizi Klara Nasriddinova.

– Avvaliga o'qchi bo'ldim, keyin minomyotchi, katta serjant unvonida raschyot komandiri. Qiyinchilik va azoblarga, dahshatli manzaralarga qanday chidadik, bilmayman. Qo'rqu bo'lgan-u, ammo yosh edik, "Peryod!" desa, yugurib ketaverardik, ko'p qiziq kunlar o'tgan boshimizdan. Gohida dushman samolyotlari dala oshxonamizni ham bombalab ketardi. Front ortidan ta'minot yetib kelgungacha bir necha kun och ham qolganmiz. Dalalarda boshoq terib, bilgan-bilmagan o'simliklarning hosilini yeganimiz, ko'lmaklarga engashib suv ichganimiz esimda...

Muhiddin otaning hikoyalari tugamaydi...

Furqat ERGASHEV

Ikkinchi jahon urushi tugaganiga necha yillar o'tgan bo'lsa-da, o'sha yillar xalqimiz boshiga tushgan g'am-anduhlar, musibat va qiyinchiliklarni mardonavor yengib o'tgan jasur otabobolarimizning matonati, jasurligi yodimizdan chiqmaydi.



# Dadamning yoshligi urushda kechgan

Yoshim 70 ga yaqinlashib borayotgan bo'lsa-da, urush qatnashchisi otam Yahyo bobo Mamadiyarovni hamon sog'inaman. Otam 1925-yilda Toshkent viloyatining Yangiyo'l tumanidagi Eski qovunchi mahallasida tavallud topgan. Ikkinchi jahon urushining dastlabki yillarida aka-ukasi Musa hamda Egam Mamadiyarov ko'ngillilardan bo'lib janggohga o'tlanadi. Ammo ikkisidan ham "qora xat" keladi.

Shundan so'ng otam 1944-yili 19 yoshida urushga safarbar etiladi. Qo'shni Qozog'iston Respublikasining Semipalatinsk shahridagi qisqa harbiy tayyorgarlikdan so'ng Belarusning Brest shahrigacha bo'lgan hududlarda dushmanga qarshi mardonavor kurashadi. Oder daryosidan kechib o'tish vaqtida og'ir jarohat olib, bir qancha vaqt hospitalda davolanadi va jangga qaytadi.

Berlin uchun janglar kechayotgan vaqtda Elba daryosi bo'yida snaryad portlashi oqibatida og'ir yaralanib, Varshavadagi gospitalga jo'natiladi. Jarohati jiddiyligi sababli I guruh urush nogironi bo'lib qoladi. Shunga qaramay, frontdagi xizmatini 1950-yil noyabr oyigacha davom ettiradi va orden-u medallar bilan qaytadi.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng qishloq xo'jaligi rahbarlarini tayyorlash kursini tamomlab, 40 yil mobaynida tumandagi sobiq "Tinchlik" jamoa xo'jaligida hosilot, bosh hosilot vazifalarida mehnat qilgan. Mehnatlari evaziga bir necha bor orden va medallar bilan taqdirlangan. Otam 2016-yili 92 yoshida vafot etdi.

O'zim urush uqubatlarini ko'rmagan bo'lsam-da, otamdan eshitganlarim hamon yodimda. Urush dahshati, uning insoniyat boshiga solgan musibatlarini

va eng muhimi, tinchlik tengsiz ne'mat ekanini otam ko'rgan kunlar haqida o'ylaganimda yanada chuqurroq his etaman.

Hayotlik chog'larida urushdan 62 yil o'tib, samarqandlik quroldosh do'sti Jalil bobo Normatov bilan uchrashgandi. Ularning bir-biriga bo'lgan do'stlik, birodarlik mehri ko'zlarida qalqigandi. Buni so'z bilan ta'riflab bo'lmaydi. Faqat his etish mumkin xolos. Urush insoniyat boshiga qanchalik musibat keltirmasin, do'stlik, darddoshlik, insoniylik kabi rishtalarni jipslashtirgan.

Bugungi tinch-totuv hayotimiz uchun otam kabi necha millionlab insonlarning yoshligi, umri fido bo'lgan. Ular oldida hamisha boshimiz egik, ta'zimdamiz.

Yusup MAMADIYAROV,  
faxriy pedagog





Vatanga qasamyod kechagina paydo bo'lib qolgan an'ana emas. Bu qanchadan qancha sarkardalarimiz, botirlarimiz tilida yangragan va so'nggi nafasgacha yurakda saqlanadigan muqaddas ontdir. Mudofaa vazirligiga qarashli harbiy qism va muassasalarda harbiy xizmatga chaqirilgan muddatli harbiy xizmatchilarning tantanali ravishda Vatanga qasamyod qilish marosimi o'tkazildi.



# VATANGA YUKSAK

Xususan, poytaxtimizdagi "Vatanga qasamyod" majmuasida o'tkazilgan marosimda mudofaa vaziri o'rinbosari polkovnik Qodirjon Tursunov yig'ilganlar e'tiboriga mudofaa vazirining askarlarga tabrigini o'qib eshittirdi. Shuningdek, Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi a'zolari, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, faxriylar, ota-onalar yurt osoyishtaligi yo'lida xizmat qilishga bel bog'lagan o'g'lonlarga o'zlarining samimiy tilaklarini bildirdi. Jonajon yurtimiz farovonligini himoya qilishdek sharafli vazifani chin yurakdan ado etishda sog'lik-omonlik, mustahkam iroda va ulkan muvaffaqiyatlar tiladi.

Vatanga qasamyod, avvalo Vatanga, onaga, Prezident va xalqqa berilgan chin yigitlik va'dasidir. Maddlik, jasurlik, sadoqat, halollik va fidoyilik fazilatlarini ushbu qasamyodning asosiy mezonlaridir. Qolaversa, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, qo'mondonlar talablarini so'zsiz bajarish, harbiy ilmni mukammal egallash,

yengilmas askar bo'lish, har qanday vaziyatda yerda va ko'kda, kecha-yu kunduz el-ulusning tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash demakdir.

Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtida o'tgan tantanali tadbirda mudofaa vazirining o'rinbosari general-mayor Hamdam Qarshiyev ishtirok etib, askarlarga zafar tiladi. Shuningdek, marosimda yurtimizning turli viloyatlaridan kelgan ota-onalar, yosh-u keksalar va mehmonlar Vatanga qasamyod qilayotgan yigitlarni katta hayajon bilan kuzatdi.

Toshkent viloyatining Zangiota tumanidagi aloqachilar harbiy qismida davlat madhiyasi bilan boshlangan tantanali marosimda Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi raisi Iqbol Mirzaaliyev va boshqalar mamlakatimizda harbiy sohani isloh etish, milliy armiyamiz qudratini yanada yuksaltirish, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida amalga oshirilayotgan ishlar samarasi, harbiy xizmatchilar uchun yaratilayotgan sharoit va imtiyozlar







# QASAMYOD

## SHARAF



xususida so'z yuritdi. Qasamyod qabul qilgan yigitlarga oq yo'l tiladi.

Tantanali ravishda Vatanga qasamyod qabul qilgan har bir o'g'lonning yuz-ko'zidagi hayajon uning qay darajada mas'uliyatli va sharaflil xizmatga qat'iy bel bog'laganini anglatib turadi.

– Harbiy qismlarda Vatanga qasamyod tadbirlari keng jamoatchilik vakillari ishtirokida o'tkazilayotgani yurtimizda "Xalq va armiya – bir tan-u bir jon" degan ezgu tamoyil tobora mustahkam qaror topayotganidan dalolat beradi, – deydi O'zbekiston

Jurnalistlar uyushmasi raisi vazifasini bajaruvchi, Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi a'zosi Xolmurod Salimov. – Yoshlarimiz milliy armiyamiz saflarida xizmat qilishni o'zlari uchun nafaqat konstitutsiyaviy burch, balki yuksak sharafl deb bilayotganidan mamnun bo'lamiz.

Marosimlarda Vatanga qasamyod qabul qilgan muddatli harbiy xizmatchilarga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomidan tantanali tarzda maxsus g'ilofdagi "O'zbekiston tarixi" va "Temur tuzuklari" kitoblari topshirildi. Ko'tarinki ruh va tantanali tarzda kechgan tadbirlarda namoyish etilgan harbiy mashqlar bo'yicha ko'rgazmali chiqishlar, Qurolli Kuchlar Markaziy ashula va raqs ansambli hamda taniqli xonandalar ijrosidagi konsert dasturi yig'ilganlarda unutilmas taassurot qoldirdi.

– Bugungi Yangi O'zbekistonda erkin va totuv

hayotimiz, musaffo osmonimiz, yorug' kelajagimiz hamda mamlakatimiz rivoji uchun Vatanimizga va harbiy burchimizga sadoqat bilan xizmat qilaman, – deydi samarqandlik oddiy askar Shokir Esonov. – Bugun ota-onamning ko'zida g'urur va faxr tuyg'ularini ko'rdim. Kelgusi xizmatim davomida erishadigan har qanday yutuqlarim ularning qarindoshlar, mahalla-ko'y oldida ko'nglini tog'dek ko'tarishiga, yuzini yorug' qilishiga ishonaman. Harbiy qismda o'tgan qisqa muddat ichida niyatlarim yanada qat'iylashdi. Qurolli Kuchlarimiz jangovar salohiyatini yanada oshirishda o'zimizga ishonib topshirilgan qurol va harbiy texnikani mukammal o'rganib, uni mohirona qo'llab, bo'linmada jangovar ruh, safdoshlarim bilan sog'lom raqobat muhitini shakllantirishga bor kuch-g'ayratimni safarbar etaman.

Endigina harbiy hayotga qadam qo'yayotgan askarlarning shijoati dadil, maqsadlari aniq. Bu kabi tantanali marosimlar barcha harbiy okruglar, harbiy qism va muassasalarda o'tkazildi. Joylardagi marosimlarda Mudofaa vazirligi, harbiy okruglar va harbiy qismlarning mas'ul ofitserlari har bir yurt o'g'loniga muddatli harbiy xizmat davomida ulkan zafarlar tiladi.

E'tiboringizga hududlarda bo'lib o'tgan Vatanga qasamyod marosimlaridan fotolavhalar havola etamiz.







## MAQSADLI TA'LIM — KELAJAK POYDEVORI



Mamlakatimizda yoshlar siyosatiga qaratilayotgan e'tiborning qay darajada ekani ularga yaratib berilayotgan qator imkoniyatlarda ko'zga yaqqol tashlanadi. Ayniqsa, maktablarda ta'lim jarayonining harbiy-vatanparvarlik yo'nalishida buyuk ajdodlar tarixini o'rganish bo'yicha olib borilayotgani diqqatga sazovor. Bundan ko'zlangan eng asosiy maqsad yosh avlod vakillarining hayotda o'z o'rnini topishini kafolatlash hamda Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashdir.

Kuni kecha mamlakatimizda ana shunday umumta'lim maktablarining soni yana bittaga ko'paydi. Jizzax viloyatining G'allaorol tumani Sarbozor mahallasida 536 o'rinli 26-umumta'lim maktabi foydalanishga topshirildi. Ta'lim maskani tashqi ko'rinishi jihatidan ham, moddiy-texnik bazasining zamonaviyligi bilan ham ko'zni quvontiradi.

Amir Temur va Jaloliddin Manguberdi tematik xonalari, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani sinfi, jasorat burchagi, harbiy-vatanparvarlik mashg'ulotlari maydonchasiga ega bo'lgan bu maktabni respublikamizda yagona, desak, adashmaymiz. Shuning uchun ochilish marosimida viloyatdagi barcha shahar va tuman hokimlarining o'rinbosarlari, maktab va maktabgacha ta'lim boshqarma hamda bo'lim rahbarlari, mudofaa ishlari bo'limi rahbariyati, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchilari, shuningdek mahalla aholisi, yoshlar taklif etildi. Chunki kelgusida G'allaorol tajribasi joylarda ham davom ettirilishi ko'zda tutilgan.

26-umumta'lim maktabining tantanali ochilish marosimida Markaziy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonligi mas'ul ofitserlari, Jizzax viloyati hokimi o'rinbosari Akbar Sovurboyev, G'allaorol tumani hokimi Jaloliddin Oqboyev qatnashib, ilm dargohi Sarbozor mahallasi yoshlari uchun munosib sovg'a bo'lganini ta'kidladi. Qurilish ishlari G'allaorol tumani hokimiyati, 26-umumta'lim maktabini bitirgan mahalliy ishbiarmonlar va Markaziy harbiy okrug tomonidan hamkorlikda olib borilgani e'tirof etildi. Viloyat hokimi o'rinbosari Akbar Sovurboyev kelajakda shunday maktablar butun respublikamiz bo'ylab faoliyat ko'rsatishi, boshqa fanlarning harbiy-vatanparvarlik yo'nalishida ajdodlar tarixini o'rganish bilan hamohang tarzda olib borilishi zamon talabi ekaniga e'tibor qaratdi.

Ochilish marosimidan keyin tadbirga taklif etilgan mutaxassislar tematik hamda fanlar bo'yicha har bir xonani, dars va mashg'ulotlar jarayonini



diqqat bilan kuzatdi. Ayniqsa, harbiy-vatanparvarlik mashg'ulotlari maydonchasida "Vatan tayanchi" otryadi tomonidan ko'rsatilgan amaliy mashqlar barchada birdek qiziqish uyg'otdi. Maktab o'quvchilari bajargan har bir harakatni mutaxassislar baholab bordi. Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchisi Sardor Baxranov harbiy qismlar bilan hamkorlikda olib borilayotgan tadbirlar va "Vatan tayanchi" otryadining viloyat miqyosidagi musobaqalarda muntazam sovrindorlar qatoridan joy olishi shogirdlari erishayotgan yutuqlar natijasi ekanini ta'kidladi.

Tadbir yakunida maktab direktori Gulnoz Tugilova g'allaorollik yoshlarga yaratib berilgan bunday imkoniyat uchun hamkorlarga maktab ma'muriyati tomonidan minnatdorlik bildirdi.



Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy klinik gospitalida tibbiy ta'minot xizmati rahbariyati tarkibining o'quv-uslubiy yig'ini o'tkazildi.

# HARBIY TIBBIY XIZMAT MUHOKAMASI



Uch kun davom etgan o'quv-uslubiy yig'in anjuman tarzida tashkil qilinib, unda Mudofaa vazirligi tibbiy ta'minot boshqarmasi, Qurolli Kuchlar harbiy tibbiyot akademiyasi, harbiy okruglar tibbiy ta'minot xizmati hamda harbiy gospitalar mas'ul ofitserlari qatnashdi.

Yig'in avvalida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan majlisidagi topshiriqlari mazmun-mohiyati, 2023/2024-o'quv yili yakunlari, 2024/2025-o'quv yilida Mudofaa vazirligi qo'shinlarining tibbiy ta'minotini yanada rivojlantirish bo'yicha muhim yo'nalishlar belgilab olindi. Harbiy tibbiy kadrlar oldiga qo'yilgan asosiy mezonlar hamda tibbiyot sohasidagi hukumat qarorlari, vazirlik boshqaruv hujjatlari talablari yetkazildi. Mudofaa vazirining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosari general-mayor Hamdam Qarshiyev so'nggi yillarda mamlakatimizda harbiy tibbiyot sohasini takomillashtirishda erishilayotgan yutuqlarni e'tirof etdi.

Anjumanda tibbiy ta'minot xizmati shaxsiy tarkibini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, axloqiy-ruhiy holatini yaxshilash, respublika tibbiyot tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning mazmun-mohiyati, sohaga doir olib borilayotgan tadbirlar samaradorligini oshirish kabi masalalar muhokama qilindi. Ma'ruzachilar jahon va Markaziy Osiyo mintaqasidagi harbiy-siyosiy vaziyatning o'ziga xos xususiyatlari, rivojlanish

tendensiyalari va unga ta'sir etuvchi omillar, Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida sog'liqni saqlash yo'nalishida amalga oshirilishi rejalashtirilgan ishlar, tibbiy ta'minot xizmatida uchrashi mumkin bo'lgan korrupsion omillar va ularning oldini olish tadbirlari haqida ishtirokchilarga ma'lumot berdi.

- Davlatimiz tomonidan harbiy tibbiyotga qaratilayotgan e'tibor natijasida Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy klinik gospitalida har qanday tibbiyot muassasasi bilan bemalol raqobatlasha oladigan Ambulator-klinika markazi tashkil etildi. Nukus, Qarshi va Farg'ona harbiy gospitalari kapital ta'mirdan chiqarilib, Termiz harbiy gospitalida ta'mirlash ishlari yakunlanish arafasida turibdi, - deydi Mudofaa vazirligi tibbiy ta'minot boshqarmasi boshlig'i tibbiy xizmat polkovnigi Nosir Fozilov. - So'nggi uch yilda 10 dan ortiq tibbiyot xodimimiz ilmiy darajalarga ega bo'lib, kasbiy faoliyatini ilm-fan bilan chambarchas bog'liqlikda olib bormoqda. Yana 50 nafardan ortiq harbiy tibbiyot xodimi ilmiy izlanishlar asosida salohiyatini oshirib, harbiy tibbiyotni takomillashtirishga o'z hissasini qo'shmoqda. Ushbu yig'in harbiy okrug (*birlashma*) tibbiy ta'minot xizmati, taktik tibbiyot bo'linmalarining samaradorligini oshirish, harbiy xizmatchilarni davolash-sog'lomlashtirish tadbirlarining hozirgi holati, harbiy tibbiy komissiyalarning

fuqarolarni muddatli harbiy xizmatga chaqirish davridagi faoliyati tahlil qilindi. Qo'shinlarda sanitariya-epidemiologik osoyishtalikni ta'minlash, xirurgik, terapevtik yordam ko'rsatishni takomillashtirish masalalari atroflicha ko'rib chiqildi.

O'quv-uslubiy yig'in doirasida tibbiy jihozlar, davolash va diagnostika asbob-uskunalarining ko'rgazmasi tashkil etildi. Tadbir ishtirokchilariga ushbu zamonaviy jihozlar imkoniyatlari va qo'llash tartibi haqida ma'lumot berildi.

- Tibbiy ta'minot xizmatimiz birlamchi zveno (*bo'g'in*)dan brigada tibbiyot punktigacha bo'lgan jarayonni qamrab oladi, - deydi Toshkent harbiy okrugi tibbiy ta'minot xizmati boshlig'i tibbiy xizmat podpolkovnigi Bahriddin Mirzakarimov. - Harbiy qism va muassasalardagi tibbiyot xodimlarimizdan bir guruhi Janubiy Koreya, Turkiya, Germaniyada malakasini oshirib, u yerda o'rgangan tajribalarini quyi bo'g'inlarda tatbiq etib kelmoqda. O'quv-uslubiy yig'inda faoliyatimizda foydalaniladigan tibbiy bog'lov vositalaridan ko'ra, gemostatik bintlarning afzalliklari, avtomatik shpritslarning xususiyatlari haqida yangi ma'lumotlarga ega bo'ldim. Bu yerda olgan bilimlarimiz harbiy xizmatchilarga ko'rsatiladigan tibbiy muolajalar sifatini oshirishga xizmat qiladi.

**Katta leytenant Dilshod RO'ZIQULOV**





## AMIR TEMURning

313  
SARKARDASI

## UMARSHAYX MIRZO

Amir Temurning 1356-yilda Turmish og'odan tavallud topgan farzandi. Yoshligidan harbiy ishga iqtidori baland bo'lgan amirzoda tezda iste'dodli sarkarda, mohir tashkilotchi sifatida shakllangan. 14-15 yoshdan e'tiboran harbiy harakatlarda, turli yurishlarda faol ishtirok etgan. Sohibqiron Farg'ona viloyati boshqaruvini ushbu o'g'liga topshirgan.

1393-yilda Amir Temur Fors viloyatini zabt etishga o'ta oqil, dono va bahodir Umarshayx mirzoni tayinlaydi. Deyarli bir yil ichida amirzoda Istahr, Faraq, Shahriyor singari bir qancha mustahkam qal'alarni egallaydi. Navbat Sirjon qal'asini zabt etishga keladi. Ayni shu kezlarda Misr va Shom (*Suriya*)ni fath etish maqsadida Diyorbakr tomon qo'shini tortgan sohibqiron farzandini o'z huzuriga chorlaydi. Mirzo Sirjon qal'asi muhosarasini Idiku barlos, Shohjahonbek va Pir Ali sulduzga topshirib, o'zi Sheroz sari ravona bo'ladi. Sherozga yetgan Umarshayx mirzo Sevinchakbekni Fors mamlakati boshqaruvi uchun belgilab, o'zi Shuliston (*Shavliston*) yo'lidan yuradi. Kurdistondan o'tib, Xurmaturo nomli qal'aga yetadi. Oz kishisi qolgan mazkur qal'ani tomosha qilish niyatida amirzoda unga yaqin keladi va bir tepalik ustidan unga nazar tashlaydi. Shu payt qal'adagi bir kishi tomonidan otirilgan nogahoniy o'q Umarshayx mirzoning qulog'i ostidagi ko'k tomiriga tegadi. Endigina 38 yoshga kirgan amirzoda halok bo'ladi. Bu mash'um hodisa 1394-yilning yanvarida yuz bergan edi.

Umarshayx mirzodan olti o'g'il qolgan edi: Pir Muhammad mirzo, Rustam mirzo, Iskandar mirzo, Ahmad mirzo, Saidi Ahmad mirzo, Boyqaro mirzo. Umarshayx vafotidan keyin sohibqiron Fors mamlakatining hukumatini 16 yoshli Pir Muhammad mirzoga topshirgan.

## SULTON SANJAR

Sayfuddinbek nukuzning o'g'li, atoqli sarkarda. Jata yurishi vaqtida (1390) qo'shun - kichik harbiy bo'lim begi mansabida turgan. Dashti Qipchoqqa uyushtirilgan safarda (1391) Umarshayx mirzo qo'l ostida harakat qilgan. 1396-yilning 18-iyulida sohibqiron buyrug'iga binoan otasi Hoji

Sayfuddinbek bilan birga Alanchuq qal'asi rahbarligiga tayinlangan. Anqara jangida Sulton Sanjar Mironshoh mirzo qo'mondonligidagi so'l qo'l (*juvang'ar*) dan o'z askarlari bilan joy olgan.

## SULTON HUSAYN MIRZO

Amir Temurning kichik qizi Aka (*O'ga*) Begi (*Tag'oyshoh*)ning Muhammadbekdan 1380-yilda tug'ilgan o'g'li. Yoshligidan takabbur, o'zboshimcha, tabiatan fitna va ig'voga moyil bo'lgan. Sulton Husayn mirzo Mironshoh mirzoning qizi Qutluq Sulton begimga uylangan. Sulton Husayn mirzo bobosining Hindiston, Iroq, Ozarbayjon, Shom va boshqa yurtlarga qilgan yirik yurishlarida faollik ko'rsatgan.

Sulton Husayn mirzo shijoatli, bahodir yigit bo'lishiga qaramay, o'ta buzuqi va beoqibat edi. Sohibqiron 1400-yilning 12- dekabrda Damashqni muhosara qilayotgan pallada bu amirzoda bir guruh muftislar bilan g'anim tomonga qochib o'tgan va o'z safdoshlari hamda yurtdoshlariga qarshi kurashgan. 1401-yilning 5-yanvarida Sulton Husayn qo'lga tushirilgan va Shohruh mirzo qarorgohiga keltirilgan. Shohruh unga tayoq jazosi belgilagan.

Shu yilning martida 5 ming kishilik qo'shin bilan Antakiyaga qilingan yurishdagi yaxshi ishlari evaziga Temurbek u nabirasining gunohlaridan kechib, unga inoyat ko'rsatgan. 1405-yilda Xitoyga qilingan yurish arafasida bobosi tomonidan qo'shinning so'l qanoti qo'mondoni etib tayinlangan.

Sohibqiron vafotidan so'ng Sulton Husayn birinchilardan bo'lib Temurbekning vasiyatini buzadi, ig'vo, fasod yo'lga kirib, Samarqand taxti uchun kurash boshlaydi. Amir Temurning nomdor sarkardalaridan Temurxoja va Xoja Yusufni o'ldiradi. Samarqanddan Balxga, Pir Muhammad mirzo huzuriga kelayotgan Muhammad Sulton mirzoning harami Xonika begimni to'xtatib, g'orat qiladi, mamlakatga tegishli mol-mulk va zeb-ziynatlarini navkarlariga ulashadi.

Uning ko'p yomon qiliqlari, nonko'rliги boshiga yetadi. Ma'lum vaqtdan so'ng oliy farmonga muvofiq Sulton Husayn Hirot shahrining Iroq darvozasi tashqarisida amir Nushiravon barlos tomonidan qatl qilingan. Hofizi Abruning ma'lumoticha, Sulton Husayn

mirzoning bosh terisini shilib, ichiga paxol tiqib Pir Muhammad mirzo dargohiga yuborishgan. Boshsiz jasad esa ma'lum vaqt Hirot bozorida osilgan holda turgan.

Sulton Husayn mirzodan ikki qiz qolgan, ulardan birining ismi Feruza begim edi.

## UZUN O'LJAYTU

Sohibqironning ishonchli mulozimi, bek. 1383-yilda Jaloluddin Shujoning qizini Pir Muhammad mirzo ibn Jahongir mirzo uchun keltirgan. 1384-yilning ko'klamida Yodgor barlos hamda Dovudbek hamrohligida Xonzodabegimni Xorazm yurtidan Samarqandga olib kelish vazifasiga mas'ul etib tayinlangan.

## UMAR BAHODUR

Abbos bahodurning o'g'li. 1384-yilda Sultoniya qal'asini egallab, shijoat namunalarini ko'rsatgan. Shu yilda Mozandaronda amir Vali va sohibqiron lashkarlari o'rtasida yuz bergan va movarounnahrliklar zafar qozongan muhorabada Eygu Temur va boshqa sarkardalar qatori qo'shin markazi (*g'o'l*) ga tayinlangan. 1386-yilda Kichik Lur poytaxti Xuramobodda kasalga chalinib, vafot etgan.

## UMARBEK NEKRO'Z

Joni Qurboniyning o'g'li. Anqara jangida sohibqiron qo'mondonligidagi qo'shin markazi (*g'o'l*)ning o'ng tomonidan joy olgan.

## UMAR MIRZO

Mironshoh mirzoning ikkinchi farzandi, 1383-yilda Xurosonda tavallud topgan. Bobosi Hindiston yurishi vaqtida (1398-1399) shu nabirasini Samarqandni boshqarish vazifasiga mas'ul etgan. Umar mirzo el bilan yaxshi chiqishib, adolatli ish yuritgan. Temur Umarning bu harakatidan mamnun bo'lgan. 1399-yilda Mironshoh mirzo o'ziga taalluqli hukumat ishlaridan chetlashtirilgach, uning tasarrufidagi Iroq, Ozarbayjon, Arron, Gurjiston, Shirvon va Mug'on viloyatlari rahbarligi Umar mirzoga topshirilgan.

Temurbekning chorloviga binoan Samarqanddan yo'lga chiqqan Umar

mirzo 1403-yilning 16-noyabrda Baylaqon shahrini qayta tiklash, uni obod qilish ishlari bilan shug'ullanayotgan bobosining huzuriga yetib kelgan. 1404-yil mart oyi boshida sohibqiron Hulaguxonga taalluqli ulusni Umar mirzoga bergan. Ozarbayjon viloyati, Rum va Istanbulgacha, Iroq va Forsgacha bo'lgan yerlar uning hukm-u farmoniga kirgan. Atoqli sarkarda va tashkilotchi sanalgan Jahonshohbek mirzoning maslahatchisi etib belgilangan.

Sohibqiron vafot etgan kezda mirzo Tabrizda edi. Bobosi vafotidan keyin Umar mirzoda otasi Mironshoh va aka-ukalariga nisbatan ishonchsizlik paydo bo'ladi. 1405-yilning 23-aprelida Umar mirzo o'z huzuriga kelgan og'asi Abubakr mirzoni hibsga olib, Sultoniya qal'asida mahbus sifatida tutib turgan.

1406-yilning avgustida Umar mirzo akasi Abubakr mirzo bilan Darguzin yaqinidagi Xarbura mavzesida bo'lgan jangda yengilib, Xurosonga, Shohruh mirzo qoshiga yo'l olgan. 16-avgust kuni Samaqon yaylovidagi Qanbar mavzesida Umar mirzo Shohruh mirzo tomonidan e'zoz-u ikromlar bilan kutib olingan.

1406-yil sentabr oxirida Astrobod sahrasida Shohruh mirzo va Pir Ali Toz o'rtasida yuz bergan muhorabada Umar mirzo qo'shinning so'l qo'l (*juvong'ar*)ga sardorlik qilgan. Shu yilning oktabrida Shohruh Gurgon, Dehiston, Astrobod va Domg'on viloyatlarini Umar mirzoga bergan. Umar mirzo Mozandaronda o'rmashib olgach, Xurosonni bosib olish da'vosini oshkor qilgan. Natijada u bilan Shohruh mirzo o'rtasida muxolifatchilik tug'iladi.

1407-yilning 17-aprel kuni Jomning Bardaviya qishlog'i atrofida Shohruh mirzo hamda Umar mirzo sipohlari bir-biriga ro'baro' keladi. Umar qo'shini sarkardalaridan birining Shohruh tomonga o'tishi oqibatida amirzoda askarlari tarqalib ketgan. Janggohni tashlab qochgan Umar mirzo Murg'ob suvi yaqinida Mizrobbek navkarlari tomonidan qo'lga olinib, Amrudak manzilida turgan Shohruh mirzo o'rdasiga keltirilgan. Shohruh jangda yaralangan jiyanini tabib va jarroh hamrohligida Hirotga jo'natgan. Shu yilning 3-may kuni To'quzrabotda dunyodan ko'z yumgan Umar mirzo Imom Faxruddin mozoriga dafn qilingan.

## UMAR TOBON

Tobonbekning farzandi. Sohibqironning e'tiborli xoslaridan biri. Dashti Qipchoqqa qilingan yurish (1395) vaqtida Hojitarxon shahrini zabt etish uning zimmasiga yuklatilgan. 1405-yilning 23-aprelida Sultoniya qo'ruqida Umar ibn Mironshoh mirzoning akasi Abubakr mirzoni qo'lga tushirish borasida tuzgan mashvaratda Umar Tobon va boshqa bir guruh amirlar uni bu ishdan qaytarishga harakat qilishgan. Shu yilning bahorida Jahonshohbek qatlidan keyin Umar mirzo ibn Mironshoh mirzodan yuz o'g'irgan.

1406-yilning aprelida og'a-ini Umar va Abubakr mirzolar o'rtasida sodir bo'lgan to'qnashuvda sustkashlik va qat'iyatsizlikda ayblanib, Abubakr mirzo buyrug'iga muvofiq o'g'li, akasi va Ziyarabek qatori qatl qilingan.

**Hamidulla DADABOYEV,**  
**Mudofaa vazirligi huzuridagi**  
**Jamoatchilik kengashi a'zosi,**  
**professor**



# STALINGRAD DASHTLARIDAGI

## QAHRAMONLIK



Vosil Qobulovni 33-gvardiyachi diviziyaning o'qchi korpusiga razvedkachi qilib olinganiga ko'p bo'lgani yo'q. Urush boshlanganida O'rta Osiyo davlat universitetining yuqori kurs talabalari qatori frontga jalb etilgan yigit, bir muddat meteorologik kuzatish kursida tahsil oldi. Kurs a'lochilaridan bo'lgan qahramonimiz aviatsiyaga xizmat ko'rsatish batareyasida ilk faoliyatini boshladi.

Keyinchalik Turkmanistonning Mari va boshqa shaharlarida xizmat qilgach, harakatdagi armiyaga jo'natishlarini so'rab bir necha bor ariza yozdi. Talabi inobatga olingan Vosil Qobulovni Tambovga yuborishdi. Batareya va vzvod komandirlari tomonidan jangga obdan tayyorlangach, razvedkachi sifatida Stalingrad dashtlaridagi jangovar yurishga jalb etildi. Bu paytga kelib Moskva ostonalari gitlerchilardan tozalangan, Stalingrad esa fashistlarga qarshi beayov kurash ketardi.

Badanga igna kabi sanchiladigan 40 darajali dasht sovuq'ida insonning chidashi oson emas. Bo'ridek uvullab ovoz chiqaradigan qor aralash izg'irinli shamol jangchilarning qadam tashlashiga monelik qiladi. Yosh jangchi Qobulov o'zini tetik tutishga urinar, issiq o'lkada voyaga yetgan o'g'lon bu qadar qaqshatqich sovuqqa birinchi bor duch kelishi edi. Qahraton qahri uning irodasini sinovdan o'tkazardi go'yo. "Chida, chidashing kerak", o'ziga o'zi dalda berardi u. - Fashist gazandalari bilan bo'ladigan janglar oldida bu sovuq nima bo'пти. Sovuqni yengsang, iblisni ham yengasan".

Jangchilar bepayon dashtlik uzra nafaqat oldinga qarab intilishi, balki hushyorlikni qo'ldan bermay, atrofini kuzatib borishi zarur. Vzvod va guruh komandirlari ularni tinimsiz ogohlantirib turadi:

- Yigitlar, bo'shshamang, belgilangan joyga aytilgan fursatda yetib borishimiz shart. Sovuqni yengish uchun ham tez harakat qilish kerak.

- Ovqatlanish va nafas rostdashga yigirma daqiqa vaqt beriladi. Shu fursatdan foydalanib, kuch to'plab oling!

- Unutmang, kaftdek tekislikda ketyapmiz. Bu fashistlarning samolyoti uchun tayyor o'lja degani. Samolyot tovushini eshitgan zahoti barchangiz yer bag'irlab yotasiz.

- Osiyolik yigit, qalaysan, bunday sovuqni ko'rmagan bo'lsang kerak? - Vosilni jangga tayyorlagan vzvod komandiri yaqin keldi unga.

- Xuddi shunday, bizda qish nisbatan yengil o'tadi, - javob berdi yigit.

- Qo'lingni, burningni imkon qadar o'ra, sovuq olishi mumkin. Jangda hali bizga keraksan. Sendan mohir razvedkachi chiqadi...

Jangchilar bir hafta tun-u kun yo'l yurib, Ivanovka qishlog'i yaqinidagi daryoga yetib kelishdi. Vosil xizmat qilayotgan korpus jangchilariga Stalingradga suqilib kirgan gitlerchilarning "Don" guruhi qo'shinlarini tor-mor etish vazifasi topshirildi. Ivanovka qishlog'ining tevarak-atrofi jarlikdan iborat bo'lib, tekis tomoniga dushman tanklari terib tashlangan. Qishloqqa o'mashib olgan "Don"chilarning asosiy obyektlarini aniqlash Qobulovga yuklatildi.

- Qobulov, yodingda bo'lsa, harbiy tayyorgarlik jarayonida senga "tug'ma razvedkachi", deb ta'rif berishgandi, - topshiriq oldidan unga ishonch bildirib, omad tiladi guruh komandiri. - Shu ishonchga loyiq bo'ladigan vaqt keldi. Faqat razvedkaga bir o'zing borishingga to'g'ri keladi. Fashistlar qishloqning to'rt tomoniga kuzatuvchilar qo'ygan. Hatto jarliklar ham qattiq nazoratda. Ikki-uch kishi bo'lib borish xavfli. Dushman razvedkachilarning biri bo'lmasa birini anglab qolishi mumkin.

- Qo'mondonlik menga ishonch bildirgan ekan, albatta oqlayman. - qat'iylik bilan javob qaytardi Vosil. - Bir-ikki soatdan keyin qorong'i tushgach, razvedkani boshlayman.

- Omad yor bo'lsin, Qobulov!..

Nishon aniq bo'lsa, dushmani yengish oson kechadi. Buni qay darajada ahamiyatli ekanini anglab turgan Vosil muhim topshiriqni bajarishga kirishdi.

Razvedkada niqoblanishning o'rni katta. Buni mukammal egallagan o'tyurak razvedkachi gitlerchilarni chalg'itib, qishloqqa yaqinlashdi. Projektor nuri tushganida tosh yoxud bir uyum tuproq kabi qotib turar, xavf yiroqlashgach, mushkul vazifani uddalashga kirishardi.

Va nihoyat, gitlerchilarning asosiy turarjoylari, jangovar texnikalari ko'zga tashlandi. Chiroq yorug'ida fashistlarning har bir harakati ko'rinib turardi. Hatto ichkarida ham qo'riqchilar talaygina. Mana bu bino oldidagi qo'riqchilarning jiddiyligiga qaraganda, bu "Don"chilarning asosiy shtabi bo'lsa kerak, xayolidan o'tkazdi yigit va belgilab oldi. Endi zudlik bilan orqaga qaytish va ma'lumotlarni qo'mondonlikka yetkazish kerak...

Vosil aniqlab kelgan ma'lumotlarga tayanib, batareya tong qorong'isida jangga kirishdi. Dastlab ularning asosiy qo'nalg'alarga qarata o't ochildi. Aridek to'zg'igan bosqinchilar o'q selidan qochib qutula olmadi. Batareya oldiga qo'yilgan topshiriq bajarildi, "Don"chilar tor-mor etildi.

Stalingrad ostonalaridagi janglar davom etmoqda. Vosil Qobulov jangchilar safida Semlyanskoye, Bogachevskoye, Moniche kabi bir qator shahar-u qishloqlarni fashistlardan ozod etishda ishtirok etdi. Janglardan birida aviabombadan yaralandi. U Stalingrad muhorabasida ko'rsatgan bir qator mardliklari sabab "Jangovar xizmati uchun" hamda "Stalingrad mudofaasi uchun" medali bilan taqdirlandi.

Vosil har bir jangda toblanib, tajribali jangchi sifatida tanilib bordi. Ana, u dushman bilan yuzma-yuz janglarda ortga chekinmas, chapdast ekanligini ko'rsatyapti. U nafaqat razvedkada, balki qo'mondonlik tomonidan berilgan har qanday topshiriqni bajarishda doim faol.

Mius daryosi bo'yidagi janglarda unga kuzatuv punkti bilan polk shtabi o'rtasidagi aloqani ta'minlash vazifasi yuklatildi. Sakkiz kilometrlik aloqa yo'li o'q seli yog'ilib turadigan biydek dashtdan iborat hududdan

o'tgan. Minalar ostida aloqa simi tez-tez uzilib turar, Vosil gohida emaklab, gohida yugurib simning uzilgan joyini aniqlab, aloqani tiklab qaytardi. Mana shunday xavfli vaziyatlardan birida Qobulov oyog'idan jiddiy yaralandi va gospitalga yetkazildi. Shifokorlar yigitning oyog'ini asrab qolish uchun bor imkoniyatlarini ishga soldi, jarrohlik amaliyotlari o'tkazildi. Xavf ortga chekindi, navqiron vujud tez tiklandi. Mius daryosi bo'yidagi janglarda ko'rsatgan jasorati uchun Vosil Qobulov "Jasurlik uchun" medali bilan mukofotlandi.

Vosil salomatligi tiklanib safga qaytganida qardron diviziyasi fashistlarni quvib ancha yiroqlab ketgandi. U Melitopolda safdoshlariga yetib oldi va razvedkachilik faoliyatini davom ettirdi. Qobulov har bir jang oldidan razvedkachi safdoshlari bilan dushman tomon yo'l olar, muhim ma'lumotlar va "til" yetkazib kelardi. Albatta, ko'p hollarda o'lim bilan yuzmay bo'lardi. Bir safar mana shunday xavfli vaziyat ro'y berdi. Vosil ikki sherigi bilan tun pardasi ostida fashistlar o'mashgan joyga yo'l oldi. Manzil ancha yiroq bo'lib, g'ira-shira yorug'lik tushganida belgilangan manzilga yetib borishdi. Dushman ularni sezmay turib, bosqinchilar istehkomini o'rganish va albatta, "til" olib qaytish kerak. Ular durbin orqali ko'plab ma'lumotga ega bo'lishdi. "Til" uchun esa gitlerchilarga yaqin borishga to'g'ri keladi. Lekin istehkom atrofida nazorat o'ta kuchli. Nima qilish kerak? Shunda, ulardan ikki yuz metrlik chamasi uzoqda fashistlarning besh nafar jangchisi ko'zga tashlandi.

- Qaranglar, barzangi frislar to'g'ri biz tomonga kelyapti, - sheriklarini ogohlantirdi Vosil. - Ayni muddao, to'rttasini gumdon qilib, bittasini o'zimiz bilan olib ketamiz.

- Kuchlar teng emas-ku, qanday uddalaymiz? - biroz sarosimaga tushdi sheriklaridan biri.

- Yana hammasi boqilgan ho'kizdek keladi, - uning fikriga qo'shildi ikkinchi razvedkachi. - Tezda reja ishlab chiqishimiz kerak.

- O'zingizni qo'lga oling, reja tayyor. Hozir niqoblangan holda uchalamiz uch tomonga bo'linamiz. O'ydim-chuqur joylarga berkinamiz. To'g'rirog'i, ularga yo'l ochamiz. Keyin orqadan hujumga o'tamiz. Xanjaringiz tayyor tursin, ovoz chiqarmay gumdon qilishimiz kerak...

Fashistlar kutmagan olishuv mal'unlar uchun ayanchli kechdi...

1944-yilning fevralida diviziya Qrimga ko'chirildi. Gitlerchilarga qarshi katta jang oldidan bir muddat hujumga tayyorgarlik ko'rildi. Ikki oy o'tib, qaqshatqich hujum boshlandi. Diviziya jangchilari fashistlarni paydar-pay mag'lub etib, Simferopolga yetib bordi. Vosil Qobulov diviziya tarkibida Sevastopol ostonalaridagi og'ir janglarda ishtirok etdi va bir qator qahramonliklar ko'rsatdi. U mana shu jangdagi jasorati uchun "Qizil Yulduz" ordeni bilan taqdirlandi.

Diviziya jangchilari qaqshatqich janglar bilan oldinga qarab intilar, gitlerchilarni yanchib borardi. Vosil Qobulov safdoshlari bilan Smolensk, so'ngra Boltiqbo'yidagi janglarda qatnashdi. Diviziya urushning oxiriga qadar Litva va Latviyani ozod etishda, shuningdek Tukums va Lipyepaya oralig'idagi gitlerchilarning Kurlyandiya guruhini yo'q qilishda jonbozlik ko'rsatdi...

Ikkinchi jahon urushi g'alaba bilan yakunlangach, qahramonimiz ona yurtga qaytdi. Kibernetiklar maktabining asoschisi, O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi Vosil Qobulov butun faoliyatini mamlakatimizda kibernetikani tashkil etish va rivojlantirishga qaratdi.

**"Xotira" kitobi asosida  
Zulfiya YUNUSOVA tayyorladi.**





# YURTIMIZ FUTBOLIDA TARIXIY VOQEA



bo'ldik! Temur Kapadze qo'l ostidagi jamoamizga, yuqori iqtidorli yigitlarga tasanno! Barakalla! Bunday yuqori notali, o'z navbatida, cheksiz quvonch, faxr-iftixor, vatanparvarlikka chulg'angan chiroyli so'zlar ayni kunlarda yurtimizning barcha viloyatlarida, shahar hamda qishloq go'shalarida yosh-u qari futbolsevar xalqimiz tilida yangramoqda, qo'shiq va raqslarga aylanmoqda. Bularning barchasi, albatta, so'nggi yillarda mamlakatimizda futbolni yanada rivojlantirishga qaratilgan ulkan e'tibor samarasi, mahsuli, o'z navbatida, iqtidorli futbolchilar kamol topayotganligidan, yangi marralardan dalolat.

23 yoshgacha bo'lgan futbolchilar o'rtasidagi Osiyo kubogi bahslari, o'z navbatida, "Parij - 2024" yozgi Olimpiya o'yinlariga saralash maqomiga ega bo'lgan musobaqa Qatarda tashkil etildi. Unda qit'amining 16 mamlakat U23 terma jamoalari 4 guruhga bo'lingan holda o'zaro raqobatlashdi. Xalqaro olimpiya qo'mitasi hamda Xalqaro futbol federatsiyalari assotsiatsiyasining tegishli komissiyalari tomonidan ishlab chiqilgan futbol bo'yicha "Parij - 2024" yozgi Olimpiya o'yinlari taqvimiga ko'ra, Osiyo qit'asi uchun to'rt yillikning eng nufuzli kompleks musobaqasiga 3+1 o'rin ajratilgandi. Ya'ni Qatar yashil maydonlaridagi bahslarda uchta sovrinli o'rinni egallagan milliy terma jamoa to'g'ridan to'g'ri yozgi Olimpiya o'yinlarida ishtirok etish huquqiga ega chiqsa, 4-o'rindan joy olgan terma jamoa Afrika kubogida 4-o'rinni egallagan jamoa bilan Olimpiada yo'llanmasi uchun bahs yuritishi belgilangandi. Bitta uchrashuvdan iborat mazkur o'yin 9-may kuni Parij shahrida tashkil etiladi.

Temur Kapadze boshchiligidagi O'zbekiston olimpiya terma jamoasi Osiyo kubogi guruh bosqich o'yinlarini "D" guruhida Malayziya, Quvayt va Vyetnam jamoalariga qarshi o'tkazdi. Olimpiya terma jamoamiz ilk uchrashuvda Malayziyaga qarshi maydonga tushdi va 2:0 hisobida g'alaba qozondi. Shundan so'ng Quvaytga 5:0, Vyetnamga 3:0 hisobida mag'lub etgan U23 terma jamoamiz guruhda 1-o'rinni egallab, 1/4 finalga chiqdi.

Mustaqillikka erishganimizdan buyon futbol bo'yicha olimpiya terma jamoamiz to'rt yillikning nufuzli musobaqasiga yo'llanma olish uchun 7 marta saralash bahslarida qatnashgan, lekin ularning barchasi, ya'ni "Atlanta - 1996", "Sidney - 2000", "Afina - 2004", "Pekin - 2008", "London - 2012", "Rio - 2016" va "Tokio - 2020" yozgi Olimpiya o'yinlariga yo'llanma taqdim etiladigan musobaqalar futbolchilarimiz va futbolsevar xalqimiz uchun muvaffaqiyatsiz yakunlangandi. Ayni kunlarda Qatarda davom etayotgan 23 yoshgacha bo'lgan futbolchilar o'rtasidagi Osiyo kubogi bahslari esa xalqimizning 28 yillik orzusini amalga oshirdi - "Parij - 2024" yozgi Olimpiya o'yinlarida qatnashadigan

Chorak finalda vakillarimizga musobaqaning amaldagi g'olibi - Saudiya Arabistoni U23 terma jamoasi qarama-qarshi keldi. O'yinning 45+2 va 84-daqiqalarida futbolchilarimiz Husayn Norchayev va Umarali Rahmonaliyev tomonidan kiritilgan gollar ushbu bahsda terma jamoamiz 2:0 hisobida g'alaba qozonishini ta'minladi.

Timur Kapadze shogirdlari yarim final uchrashuvini musobaqada sensatsiya kashf qilayotgan Indoneziyaga qarshi o'tkazdi. Ushbu bahsdagi g'alaba jamoalarga final bilan birga "Parij - 2024" yozgi Olimpiya o'yinlari yo'llanmasini ham taqdim qilardi. Shu bois bahs keskin kechishi kutilgandi. Biroq.. "Abdulloh Bin Xalifa" stadionida o'tgan uchrashuvda O'zbekiston olimpiya terma jamoasi raqib darvozasi tomon jami 28 marotaba zarba berdi va ulardan 4 tasi aniq chiqdi hamda 2 tasi golga aylandi. Indoneziya futbolchilari esa aksincha, darvozamiz tomon bor-yo'g'i 4 marta to'p tepdi va ularning barchasi noaniq bo'ldi. Ana shunday katta ustunlikdagi o'yinda vakillarimiz 2:0 hisobida g'alaba qozondi. 68-daqiqada Husayn Norchayev hisobni ochgan bo'lsa, 86-daqiqada raqib futbolchisi Pratama Arxan o'z darvozasini ishg'ol etib qo'ydi. Shuningdek, 84-daqiqada Rizki Ramadani Jasur Jaloliddinovga nisbatan ishlatilgan fol uchun qizil kartochkaga loyiq ko'rildi. Shu tariqa, Temur Kapadze shogirdlari Osiyo kubogi finali va "Parij - 2024" yozgi Olimpiya o'yinlari yo'llanmasini qo'lga kiritdi.

Osiyo kubogining beshta o'yinida 14 ta gol urib, o'z darvozasi daxlsizligini saqlab qolgan O'zbekiston olimpiyachilari final bahsini 3-may kuni Yaponiya terma jamoasiga qarshi o'tkazadi. Terma jamoalarning mazkur oltinchi o'yini nafaqat Osiyo kubogi g'olibini, balki ularning "Parij - 2024" da qaysi guruhdan joy olishini ham aniqlaydi. Agarda futbolchilarimiz finalda g'olib chiqsa, "Parij - 2024" yozgi Olimpiya o'yinlarining "D" guruhida Paragvay, Mali, Isroil terma jamoalariga qarshi maydonga chiqadi. Vitse-champion bo'lsa, "C" kvartetida Ispaniya, Misr va Dominikan Respublikasi jamoalariga qarshi bahs olib boradi.



## SHOHSUPA

(xabarlar)



### PROFESSIONAL BOKS



Havaskor boks bo'yicha o'tgan yilgi jahon chempionatida kumush medalga sazovor bo'lgan Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi (MVSM) vakili Saidjamshid Jafarov professional boksdan ham ajoyib muvaffaqiyatga erishdi. U Qozog'istonning Almati shahrida bo'lib o'tgan "IBA Chempionlar oqshomi"ning asosiy bahsida mezbonlar vakili Talgat Shayken bilan 71 kg vaznda IBA Osiyo chempionligi uchun jang o'tkazdi va g'alaba qozondi. Jangdan so'ng bokschimizga "IBA Asia" kamari tantanali ravishda topshirildi.

### BOKS



Tarkibidan MVSM vakillari ham o'rin olgan boks bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi a'zolari Qirg'izistonning Bishkek shahrida o'tkazilgan an'anaviy "Duyshenkul Shopokov" xalqaro turnirida qatnashib, jami 10 ta medalga sazovor bo'lishdi. Safarbek Abumutalipov o'z vazn toifasi bo'yicha janglar yakunida oltin medalni qo'lga kiritgan bo'lsa, Mirzabek Mirzaxalilov va Kamron Shukurjonov kumush, Husanboy Mirsaidov, Ziyovuddin Alijonov, Sanjar Vahobov, Ma'murjon Hamidullayev, Bekzod Hamidov, Madumar Bahromov hamda Elyorbek Jo'raboyev bronza medal bilan taqdirlandi.

### BADIY GIMNASTIKA



Poytaxtimiz mezbonlik qilgan badiiy gimnastika bo'yicha Jahon kubogining 4-bosqich bahslari yakunlandi. Musobaqada dunyoning 34 mamlakatidan 100 dan ortiq gimnastikachi qizlar ishtirok etdi. O'zbekiston terma jamoasi a'zolari musobaqaning 2 ta oltin, 4 ta kumush va 1 ta bronza, jami 7 ta medalini qo'lga kiritdi. Bosh qahramon Taxmina Ikromova bo'ldi. U yakalik bahslarining halqa va to'pda mashq bajarish bellashuvlarida oltin, bulava hamda tasmada mashq bajarishda kumush medalga sazovor bo'ldi. Shuningdek, Taxmina ko'pkurashda o'zining uchinchi kumush medaliga ega chiqdi.

### YENGIL ATLETIKA



BAAning Dubay shahrida yengil atletika bo'yicha yoshlar o'rtasida Osiyo chempionati o'tkazildi. Unda qatnashgan O'zbekiston terma jamoasi 4 ta oltin, 1 ta kumush va 2 ta bronza, jami 7 ta medal jamg'arib, umumjamoa hisobida Xitoy, Yaponiya va Hindistondan keyin 4-o'rinni egalladi. Chempionatning ko'pkurash bahsida Nodir Norboyev, 400 metrga yugurish dasturida Jonbibi Hukmova, uch hatlab sakrashda Xushnoza Shavkatova, balandlikka sakrashda Barno Sayfullayeva barcha raqiblarini ortda qoldirib, oltin medalga sazovor bo'ldi. Dilshoda Usmonova, Mashhura Soibova va Emiliya Rudina o'z yo'nalishi bo'yicha bahslarda kumush va bronza medallarni qo'lga kiritdi.

### SHAXMAT



Albaniyaning Durres shahrida o'smirlar o'rtasida shaxmatning rapid va blits yo'nalishlari bo'yicha jahon chempionati o'tkazildi. Dunyoning 43 davlatidan 350 nafar shaxmatchi g'oliblik uchun kurash olib borgan musobaqada ham yurtimiz Malika Norqulova ham ishtirok etdi. 10 yoshli shaxmatchimiz 11 turdan iborat rapid yo'nalishidagi bahslar yakunida 8 ochko jamg'ardi va bronza medalini qo'lga kiritdi. Mazkur yo'nalishda oltin va kumush medallar hindistonlik Sharvaanika va FIDE bayrog'i ostida musobaqada ishtirok etgan Alisa Yunkerga nasib etdi.



# XORIJIY TILLARNI O'QITISH MASALALARI MUHOKAMASI

Bugungi kun barcha sohalarda bo'lgani kabi harbiy xizmatchilarning chet tilini mukammal bilishini talab qilmoqda. Bu esa oliy harbiy ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni o'qitayotgan professor-o'qituvchilarning zimmasidagi mas'uliyatni oshiradi. Ta'lim jarayoniga yangi pedagogik metodlarni joriy qilish esa mutaxassislardan o'z ustida ishlashni talab etadi.

Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtida bo'lib o'tgan "Oliy harbiy ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni o'qitishda kommunikativ kompetensiyasi tendensiyalari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumanda bu haqda alohida to'xtaldi.

Anjumanda yurtimizdagi turli oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, "Science and innovation"



kompaniyasi vakillari, mustaqil izlanuvchilar va kursantlar ishtirok etdi.

Tadbir doirasida harbiy xizmatchilarga xorijiy tilni o'rgatishdagi muammolar va yechimlari muhokama qilindi, takliflar tinglandi.

Shuningdek, "Terminologiyada nominatsiya hodisasi" (kompyuter va internet terminlari misolida), "Nofilologik oliy o'quv yurtlarida xorijiy tillarni integrativ yondashuv asosida o'qitish", "Xorijiy tillarni o'qitishning samarali usullari", "Kursantlarga harbiy terminlarni o'qitishning dolzarb masalalari" kabi bir qator mavzularda ma'ruzalar tinglandi.

Konferensiyada olimlar bugungi globallashuv asrida zamonaviy harbiy xizmatchi kamida 2 ta xorijiy tilni mukammal bilishi zarur ekani alohida ta'kidlab, bu borada hamkorlikda ishlar amalga oshirilishi kerakligi xususida fikr bildirdi.

Anjuman yakunida ishtirokchilarga sertifikatlar topshirildi.

Ro'ziqul OCHILOV,  
"Vatanparvar"

## IJODKOR OLIMA

*bilan uchrashuv*

Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug boshqaruv apparati majlislar zalida fidoyi ustozlardan biri – oddiy muallimlikdan yuksak darajaga erishgan olima, tarjimon, shoira, bir qator darsliklar va uslubiy qo'llanmalar muallifi, O'zbekiston Respublikasi "Xalq ta'limi a'lochisi" ko'krak nishoni, "Mehnat shuhrati" ordeni sohibasi Zulfiya Kiyamova bilan ijodiy uchrashuv bo'lib o'tdi.

Oltmish yoshni qarshilagan muallima Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanidagi Jingil qishlog'ining baland tog'li hududida joylashgan 84-umumta'lim maktabida o'quvchilarga chet tilidan saboq berib kelayotgan zahmatkash ustozlardan.

Tadbirda harbiy xizmatchilar va Qurolli Kuchlar xizmatchilari ishtirok etdi. Zulfiya Kiyamova o'z so'zini Yurtboshimizning quyidagi fikrlari bilan boshladi: "Farzandlarimiz mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosidagi tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun

davlatimiz, jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz".

Olima uchrashuvda yurtimiz hududidagi umumta'lim maktablarining 5-sinf o'quvchilari hamda barcha oliyog'oh talabalari uchun nemis tili darsliklari, o'qituvchilar uchun uslubiy qo'llanmalar yaratgan yagona muallif sifatida, o'qituvchilik faoliyati davomida o'quvchilarga xorijiy tillarni o'rgatishi bilan birga, bir qator metodik va ilmiy maqolalar, uslubiy qo'llanmalar hamda darsliklar yaratgani borasida to'xtalib o'tdi. Tadbir ishtirokchilariga o'zi bilan olib kelgan adabiyotlarni taqdim etdi.

Zulfiya Kiyamova nemis xalqining mashhur shoirlarining she'rilarini tarjima

qilganligi haqida so'z yuritib, tarjimalaridan namunalar keltirdi. Ijodiy uchrashuv jarayonida tadbir ishtirokchilariga yaqinda nashrdan chiqqan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun yaratilgan qo'shimcha adabiyot, metodik qo'llanma hamda barcha oliyog'ohlarga tarqatilgan nemis tili darsligi haqida ma'lumot berib o'tdi.

Olima uchrashuv davomida u bilan tadbirda ishtirok etgan shogirdi va farzandi Orasta Tojiyevani tanishtirdi. Orasta ham onasining izidan borib, katta yutuqlarga erishgan, bo'lajak olimlardan. U hozirda Qarshi davlat universiteti magistranti, Navoiy nomidagi davlat

stipendiyasi sohibasi, "Xorijiy tillarni o'rgatishda yangicha uslublarni qo'llash va ommalashtirish" nomli risola muallifidir.

Tadbir jonli muloqot tarzida qiziqarli savol-javoblar bilan yuksak saviyada bo'lib o'tdi. Aziz mehmonga harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonligining minnatdorligi bildirilib, tashakkurnoma topshirildi.

Tamara MAMANOVA,  
Janubi-g'arbiy maxsus  
harbiy okrug  
ma'naviyat va ma'rifat ishlari  
bo'yicha mutaxassis





# AVTOMOBIL RULIDAGI

# AXOL

Ko'zimiz ko'nikkan manzara: erkaklar mashina ruliga o'tirsa, umuman ajablanmaymiz. Agar ulovni ayol boshqarib ketayotgan bo'lsa-chi? Hayratlanasiz, to'g'rimi? Bu – gender tenglikning yana bir ko'rinishi, aslida. Kimdir bu holatni ma'qullasa, biron rad etadi. Globallashtirilgan jamiyatda tezlashib ketgan vaqtdan yutish, davrga moslashish, zamon bilan qadam-baqadam yurish ilg'or fikrlaydigan xotin-qizlarning shiori bo'lib qolmoqda.



Haydovchilik guvohnomasini qo'lga olish – erishilgan orzu, hayajon! Ammo bunga qadar chekiladigan mashaqqat va ovoragarchilik qancha? Ayniqsa, uy-ro'zg'or, ish, o'qish, farzand tarbiyasi bilan band bo'lgan xotin-qizlarning o'z tashvishidan ortib, avtomaktabga yugurishi, rulga o'tirishini ko'z oldingizga keltiring!

Avtomashina haydash kasb emas, qiziqish va xohishning ifodasi, qolaversa, imkoniyatni kengaytirish, qulaylik uchun intilish. Haydash huquqiga ega bo'lish uchun, albatta avtomaktabda o'qish shart. O'qimay turib, bunday hujjatni sotib olish ko'plab ko'ngilsizliklar uchun yo'l ochadi. Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotiga qarashli va mustaqil faoliyat yurituvchi avtomaktablarda har yili turli soha vakillari haydovchilik guvohnomasini oladi.

– "Vatanparvar" tashkiloti tasarrufida 205 ta o'quv muassasasi mavjud bo'lib, unda 700 dan ortiq ayol-qiz faoliyat yuritadi, – deydi tashkilot markaziy kengashi matbuot kotibi Laziz Bo'ronov. – Rahbar, muavin, ish yurituvchi, sport murabbiysi, o'qituvchi, instruktor lavozimlarida ishlab kelayotgan ayollarimiz erkaklar bilan teppa-teng o'z xizmat postida sergak, hushyor. Instruktor bo'lib ishlash oson emas. Avtomashina haydashning hadisini olgan 68 nafar instruktor ayol tinglovchilarga amaliy mashg'ulotni o'z vaqtida o'tkazib kelmoqda. Haydovchilik kurslarini o'tgan yili 90 mingga yaqin fuqaro bitirgan bo'lsa, shundan 11 991 nafarini xotin-qizlar tashkil etadi. Xususiy avtomaktab tinglovchilari orasida ham ular soni kam emas. Shu narsa ayonki, opa-singillarimiz erkaklarga nisbatan hushyorligi va sezgirligi bilan yo'l-transport hodisalarini juda ko'p sodir etavermaydi. Ular

yo'l harakati qoidalariga rioya qilishi, xavfsizlik kamarini taqish va mo'ljalni to'g'ri olishi bilan muhtaram erkaklarimizga ibrat bo'lishi mumkin.

Nafaqat poytaxtimiz markaziy ko'cha va ichki yo'llari, balki mamlakatimizning barcha viloyatlarida avtomashina rulini amin-erkin boshqarib ketayotgan qiz-juvonlarni ko'ramiz.

Ular qaysidir avtomaktabda ma'lum muddat o'qib, haydovchilik guvohnomasi qo'lga tekkachgina mashina ruliga o'tirgan.

– So'nggi o'n yillikda avtomaktabimiz tinglovchilarining 60–70 foizini ayollar tashkil etadi, – deydi mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Yashnobod tumani o'quv sport-texnika klubi rahbari Odil Barotov. – 2023-yilda avtomaktabimizni bitirgan 288 tinglovchining yarmidan ko'prog'i xotin-qizlar bo'ldi. To'rt oy-u yigirma kunlik muddat ichida biz ularga 216 soatlik nazariy va 69 soatlik amaliy mashg'ulot o'tib, avtomashina rulini boshqarishning barcha sir-sinoatlarini o'rgatamiz. Sakkizta o'quv predmeti

mazmun-mundariyasiga yo'l harakati qoidalarini, sohaga oid qonunchilik asoslari, haydovchi madaniyati, avtomashina tuzilishi, uning texnik xavfsizligini ta'minlash, yo'l-transport hodisasi ro'y berganda jabrlanuvchiga birinchi tibbiy

Ko'plab turarjoy, madaniy-maishiy inshootlar, ko'priklar, yo'llar bunyod etilayotgani, transport vositalarining ko'payishi, xullas, tuman, shahar infratuzilmalarining o'zgarishi rulga o'tiradigan kishidan sergaklikni, ogohlilikni talab qilmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, har yili yo'l-transport hodisalarini tufayli 1,3 million kishi vafot etadi. Bu esa haydovchidan o'ta sergaklikni, ogohlilikni talab qiladi.

– Avtomaktabda o'qishimga turmush o'rtog'im qat'iy qarshi chiqqan, – deydi Toshkent shahrida istiqomat qiluvchi

oldim. Endi meni juda katta qo'rquv – avtomashinani boshqarish amaliyoti kutardi. To'g'ri, avtomaktabda instruktor ko'magi bilan rulga o'tirganman, haydaganman. Ammo mustaqil rulga o'tirishning hayajoni boshqacha bo'larkan. Instruktor qulog'imga quydi: "O'rindiqqa yaxshilab joylashib oling!", "Xavfsizlik kamarini taqing!" va "Diqqatni jamlang!" Rioya qildim, sekin-asta kamqatnov yo'laklarda, maxsus maydonchalarda mashinaga o'tirib, haydashni o'rgandim. Mana, besh yildirki, mashinani qo'rqmasdan, ikkilanmay boshqaraman. U meni to'g'ri tushunadi, men uni. Mashinam bilan barcha ishlarim qisqa vaqtda bitadi. Boshida qarshilik qilgan turmush o'rtog'im hozir, yaxshiyamki, o'qib-o'rgangan ekansan, farzandlarimizning o'qishga qatnovidan ko'nglim to'q, deydi.

– Men 2007-yildan beri avtomashina boshqaraman, – deydi Toshkent shahrida istiqomat qiluvchi yana bir ayol Munisa Ergasheva. – Rulga o'tirishim bilanoq xavfsizlik kamarini taqib olaman. Muntazam ravishda mashina haydagach, yo'lning qayerida qanday holat, mo'ljalni qanday olish kerak, bilib qolasiz. Ertalab yo'llar tirbandlikdan

xoli vaqtda ishga ketaman. Yo'llar ochiq, keng, amin-erkin, xavfsiz, ammo yo'l harakati qoidalariga

rioya qilgan holda osoyishta rul boshqarib ketishga nima yetsin? Ishdan kech chiqqanim bois tirbandlik kuzatilmaydi, birpasda g'izillab, uyimga yetib olaman.

Ha, chindan rulda o'tirgan ayolning tashvishi ikki karra ziyod: bozor-o'char, maktab-bog'chaga yugurish, ba'zan mehmonga borish. Ayol kishining qirqta joni bor. Ehhe, u nimalarga qodir emas? Turmush o'rtog'iga qo'l-qanot, dilbandlariga payvand. Xoh erkak, xoh ayol bo'lsin, yo'lga chiqqan har bir haydovchi manziliga eson-omon yetib olsin!

**Hulkar TO'YMANOVA,**  
jurnalist



tadbirkor Feruza Xolmurodova. – Serqatnov yo'ldan kesib o'tishda qo'rqqanim, yo'l harakati qoidalarini puxta bilmasligim tufaylimikan, ancha vaqtgacha rozi bo'lmadi. O'rganib qo'yaveray, zarari yo'q, bir kuni foydasi tegib qolar, deb oyoq tirab turib oldim. Xullas, u kishi ko'ngachgina, 2018-yilning iyun oyidan boshlab uyimizga yaqin hududdagi avtomaktabda o'qiy boshladim. Vaqt o'tib, haydovchilik guvohnomasini



## Sog'lom turmush tarzi



# MUVOZANATLASHGAN

## ovqatlanish nima uchun muhim?

Kasallikning yaxshisi bo'lmaydi, deyishadi shifokorlar. Aksariyat kasalliklarning boshi sifatida esa noto'g'ri ovqatlanish sabab bo'lishi fanda isbotlangan. Dunyo yaralibdiki, undagi hamma narsa o'ziga yarasha qonun-qoida bilan ishlaydi. Organizm ham shunday. Insonda qanday kasallik kuzatilsa, organizmdagi qonuniyatlardan birortasining buzilishi bilan bog'laymiz.

Masalan, biz ovqatlanish me'yorida chetga chiqsak, oshqozon, o'n ikki barmoqli ichak va qizilo'ngachda turli xil kasalliklar boshlanishiga zamin yaratgan bo'lamiz. Gastrit, qizilo'ngachdagi yallig'lanishlar palapartish, noto'g'ri ovqatlanish hisobiga to'g'ri keladi. Ertalab nonushta qilayotganimizda nima yangiliklar bor ekan deya, telefonimizni qo'lga olamiz. Turli yangiliklarga chalg'ib, nima iste'mol qilayotganimizni unutimiz. Bizga qanday vitamin yoki mahsulot yetishmayapti, bundan bexabarmiz. Aslida, hammamiz to'yga borganda qanday hozirlik ko'rib tayyorlansak, ovqatlanishga ham shunday o'zimizni tayyorlashimiz kerak. Demak, ovqatlanishga e'tiborsiz bo'lishimiz hayotda yo'l qo'yayotgan katta xatoimizdir.

Biz nega yana bu mavzuga qaytdik? Chunki ijtimoiy tarmoqlarda kunda-kunora semizlikdan aziyat chekayotgan, bundan qutulish uchun, hatto tig' tagiga yotishgacha borgan insonlar taqdiridan boxabar bo'lyapmiz. Kun sayin soni ortayotgan diyetologlar haqida eshityapmiz. Demak, bu mutaxassislarga talab ortyapti – semizlik borgan sari jiddiy muammoga aylanib boryapti. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotiga ko'ra, 2030-yilga borib, dunyo aholisining qariyb 45 foizi semizlikdan aziyat chekishi mumkin. Olimlar bu global muammoga sog'lom turmush tarzi orqali samarali yechim topish mumkin, degan xulosada. Bilamizki, sog'lom turmush tarzi, eng avvalo, sog'lom ovqatlanishga asoslanadi. Sog'lom ovqatlanish, birinchi navbatda, muvozanatlashgan va xilma-xil ratsiondir. Quyida biz bu haqda sizga soddarok tilda tushuncha berishga harakat qilamiz.

**Nima uchun doimiy ravishda to'g'ri ovqatlanish muhim?**

To'g'ri ovqatlanishni uzoq muddatli sarmoyaga qiyoslash mumkin. Agar bugun chipslar o'miga sabzavotli salat iste'mol qilsangiz, ertaga o'zingizni his qilish borasida katta o'zgarishlar bo'lmayligi mumkin. Biroq bunga har doim amal qilinsa, salomatlik yaxshilanadi.

### Vazn normallashtirish

Ortiqcha vazn turli kasalliklar rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Patologiya yuzaga kelish xavfini aniqlashda oddiy

santimetr lentasi yordamga keladi. Unda bel aylanasi o'lchash kerak: normada ayollar uchun 80 sm.dan ortiq, erkaklar uchun esa 94 sm.dan ortiq bo'lmayligi kerak. Agar bel aylanasi ayollarda 88 sm.dan, erkaklarda 102 sm.dan ortiq bo'lsa, yurak-qon tomir kasalliklari rivojlanib, erta o'lim, uglevod almashinuvi buzilishi va saratonning ayrim turlari kelib chiqish xavfi ortishi mumkin.

Ratsion tarkibida yog', shakar va tuz ko'p bo'lgan, shuningdek energetik qiymati yuqori mahsulotlar ko'p bo'lsa, ortiqcha vazn paydo bo'lishi mumkin. Aslida, sog'lom ovqatlanish yog'li, tezkor uglevodlar, zararli qayla va yeguliklarni cheklash yoki butunlay iste'mol qilmaslikni nazarda tutadi.

### Oshqozon-ichak trakti faoliyati yaxshilanadi

Muvozanatlashgan ovqatlanishda ko'katlarni ko'p miqdorda iste'mol qilish lozim. Shifokorlar kuniga 400 grammdan kam bo'lmagan miqdorda meva va sabzavot iste'mol qilishni maslahat beradi. Bu taxminan besh porsiya degani. Bu tavsiyaga amal qilish uchun deyarli har ovqatlanishdan oldin yoki keyin meva va sabzavot iste'mol qilish zarur.

Darvoqe, ko'plab o'simliklar tarkibidagi kletchatka ovqat hazm bo'lishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Undagi tolalar oshqozonda hazm bo'lmaydi, yo'g'on ichakka kelib tushadi va foydali bakteriyalar uchun ovqatga aylanadi. Kletchatka moddalar almashinuvini yaxshilash va qabziyat yuzaga kelishining oldini olishda yordam beradi. Bundan tashqari, oshqozon-ichak traktiga sut-qatiq mahsulotlari ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Agar sizda laktoza yetishmovchiligi bo'lmasa, ushbu mahsulotlarni ratsionga kiritish zarur.

### Quvvat paydo bo'ladi va uyqu normallashtirish

Agar kaloriya va nutriyentlar bo'yicha shaxsiy normaga amal qilinsa, organizm yetarli miqdorda kuch oladi. Kundalik vazifalarni bajarish va faol turmush kechirish oson bo'ladi.

Bundan tashqari, sog'lom ovqatlanish uyqu sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ovqatning tungi uyqu sifatiga ta'siri tadqiqotlar bilan tasdiqlangan. Olimlar shirin va yog'li ovqatni ortiqcha miqdorda iste'mol qilish bilan tadqiqot ishtirokchilari chuqur uyquga ketishi o'rtasidagi bog'liqlikni topishgan. Yana ular tun davomida tez-tez uyg'onishgan. Agar anchadan beri tiniq uxlamagan bo'lsangiz, bu ratsionni, xususan kechi ovqatni qayta ko'rib chiqish uchun bir sababdir.

### Teri holati yaxshilanadi

Noto'g'ri ovqatlanish va tashqi ko'rinishimiz o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjud. Yog'lar iste'molini cheklashni xush ko'ruvchi ekstremal parhez ishqiobzolari foydali omega 3 va



omega 6 kislotalarini yetarli miqdorda olishmaydi. Bu moddalar organizm tomonidan sintez qilinmaydi, faqat yegulik bilan kelib tushadi. Ular hujayradagi moddalar almashinuvi ishtirok etadi va terining to'siq funksiyalarini saqlash uchun zarur.

Elastin va kollagen epidermis tarangligi uchun javob beradi. Ular yog'siz go'sht va sut mahsulotlari tarkibida bo'ladi. Meva, rezavor va sabzavotlar tarkibidagi A, V va S vitaminlari teriga sog'lom rangni qaytarishda yordam beradi, qurish va yallig'lanishlardan xalos etadi.

### Surunkali kasalliklar rivojlanishi xavfi kamayadi

Shifokorlar fikricha, yog'li va shirin mahsulotlarni sevib iste'mol qilish qandli diabet va yurak-qon tomir kasalliklarining rivojlanishi xavfini oshiradi. Tana massasi ortgan va semizlikka uchragan kishilar ovqatlanish hamda vaznini nazorat qiluvchilarga qaraganda ko'proq kasal bo'lishadi.

Bundan tashqari, noto'g'ri ovqatlanish va onkologiya o'rtasida bog'liqlik mavjud. Shakar miqdori yuqori bo'lgan ratsion jigar, buyrak, oshqozon osti bezi va qalqonsimon bez, yo'g'on ichak, o't pufagi va boshqa organlar saratoni rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Nasliy omillar hisobga olinmasa, sog'lom ratsionga amal qiladigan kishida og'ziga tushganni yeydigan odamga qaraganda ushbu kasalliklarga chalinish ehtimoli kamroq.

### To'g'ri ovqatlanish uchun nima qilish kerak?

Sog'lom ovqatlanish atrofida bir-biriga zid keluvchi fikrlar juda ko'p. Biroq ularni ajratib olish mumkin. Mana bu universal qoidalar sog'lom va muvozanatlashgan ratsion tuzishda sizga yordam beradi.

### Porsiya o'lchamlarini kuzatib boring!

Kaloriyaga bo'lgan sutkalik ehtiyoj yosh, jins, hayot tarzi, salomatlik holati va boshqa ko'plab omillarga bog'liq. Vaznning tez o'zgarishi va kun davomida o'zini yaxshi his qilmaslik porsiya o'lchamini qayta ko'rib chiqish haqida sizga belgi beradi.

Iste'mol qilingan yegulik miqdorini onlayn kundalik va kalkulyatorlarda kuzatib borish qulayroq. Ular vazn yig'ish, kamaytirish va tana massasini saqlash bo'yicha ehtiyojlaringizdan kelib chiqib, siz uchun kaloriyalar normasini hisoblashda yordam beradi.

### Shakar va tuz iste'molini cheklang!

Ulami ratsiondan butunlay chiqarib bo'lmaydi. Tuz

moddalar almashinuvi ishtirok etadi. Shakar esa ko'plab foydali va zarur bo'lgan meva hamda sut tarkibida mavjud. Shifokorlar ana shu moddalarning ratsiondagi miqdori bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqishgan.

Masalan, tuzni kuniga 5 grammdan ortiq iste'mol qilish mumkin emas. Ko'plab mahsulotlar tarkibida tuz mavjudligini hisobga olib, uyda tayyorlanadigan ovqatga kamroq tuz qo'shish va ratsiondan zararli yeguliklarni chiqarib tashlagan ma'qul. Bunday cheklolvar gipertoniya profilaktikasiga hissa qo'shadi, insult va yurak-qon tomir kasalliklari rivojlanishining xavfini kamaytiradi.

Normal vaznga ega, kuniga 2 000 kaloriya iste'mol qiladigan odam uchun ratsiondagi erkin shakar miqdorini jami energiya iste'molining 5 foizigacha kamaytirish zarur. Bu taxminan beshta choy qoshig'i degani. Bu norma mahsulotlar va ichimliklarga qo'shiladigan jami shakar kiradi. Agar shirinliklarni keskin ravishda cheklash siz uchun qiyinchilik tug'dirsa, ular o'rniga meva va rezavor mevalar iste'mol qiling!

### Ovqat sifati va uning tarkibini hisobga oling:

O'ramlarni o'qish – foydali ko'nikma. Ko'pincha "eko", "bio", "tabiiy" so'zlari ortida oddiy marketing yashiringan bo'ladi. Mahsulotlarni kassaga olib borishdan avval ularning tarkibini diqqat bilan o'qing! Uning tarkibidagi mahsulotlar o'lchami kamayib borish tartibida ko'rsatilgan. Go'sht konservalarida go'sht, nonda un, sut mahsulotlarida sut birinchi o'rinda turishi kerak.

Qo'shimchalarga e'tibor bering! Ko'pincha o'ram ichida nafaqat toza ingrediyentlar, balki iste'moli cheklanishi lozim bo'lgan moddalarni uchratish mumkin. Masalan, boshqoqli dondan tayyorlangan batoncha shirinligi sog'lom yegulik sifatida ko'rsatiladi, aslida esa unday emas. Uning tarkibida shakar, konsentratsiya qilingan sirop, palma yog'i, albatto bo'ladi. Shirin yogurt, tayyor nonushta va boshqa foydali mahsulotlarda ham xuddi shu holat takrorlanadi.

### Yaxshisi o'zingiz tayyorlang!

To'g'ri, ovqatlanish borasida intizomga amal qilish har doim oson kechmaydi. Och qolgan odamning oyoqlari uni kartoshka fri tomon yetaklaydi. Biroq likopchangizga tushayotgan mahsulotlarning sifatiga 100 foiz ishonch hosil qilish yo'li bitta: buning uchun taomni o'zingiz tayyorlashingiz zarur.

Bundan tashqari, uyda ovqat tayyorlash tarkibida nosog'lom qo'shimchalar bo'lgan sevimli taomlardan voz kechmaslik imkonini beradi. Masalan, salatdagi mayonez o'rniga yogurtli, xantalli qayla, kolbasa o'rniga pishirilgan tovuq, margarin o'rniga esa o'simlik yog'i yoki sariyog' ishlatish mumkin.

**G. HOJIMURODOVA tayyorladi.**





# MUHAMMAD YUSUF — el ardog'idagi shoir!



O'zbek adabiyotida o'chmas iz qoldirgan O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf tavalludiga 70 yil to'ldi. Shoirning o'lmas satrlari, qo'shiqqa aylanib, qalblarga kirgan she'rlarini — qalbidan yangragan ovozi va dunyolarga sig'may qog'ozlardan joy olgan ijod mahsullarini hech bir o'zbek unutmaydi!

Termiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakultetida "Ma'rifat ulashib" loyihasi doirasida Muhammad Yusuf tavalludining 70 yilligi munosabati bilan "She'riyat shaydosiman" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi.

Adabiyot kechasida ijod ahli vakillari, O'zbek filologiyasi fakulteti professor-o'qituvchilari, fakultet tyutorlari hamda talabalari ishtirok etdi. Unda so'z olganlar

shoirning hayoti, serqirra ijodi, ayniqsa betakror misralarida ulug'langan oliyanob tuyg'ular, insoniy qadriyatlar haqida to'lqinlanib gapirdi.

Muhammad Yusuf o'z ona xalqining yuksak orzu-intilishlari, armonlari, ertangi kunga bo'lgan umid va ishonchini o'z ovozi, sozi bilan jo'shib kuylagan. U shu xalq bilan kuldi, shu xalq bilan yig'ladi, u bilan yondi, faqat unga topindi. Bir jo'mard o'g'lidan e'zoz topgan ona yurt uni boshiga ko'tardi, bag'rida ardoqladi, yozganlarini vatanparvarlik va millatsevarlik yo'lida bayroq qildi.

Tadbirda talaba-yoshlar tomonidan shoir qalamiga mansub she'rlar o'qildi. Shoirning mazmunli umr yo'li aks etgan sahna ko'rinishlari, uning she'rlariga bastalangan qo'shiqlar yig'ilganlarga birdek yuqori kayfiyat ulashdi.

**Jamshid NAZAROV,**  
Termiz davlat universiteti  
O'zbek filologiyasi fakulteti  
tyutori

# Yong'in xavfsizligini ta'minlashga e'tibor

Mudofaa vazirligi qo'shinlarida so'nggi yillarda harbiy qism, shaxsiy tarkib, inshootlar hamda birlashtirilgan hududlarni, qo'riqlanayotgan obyektlar va turarjoylar xavfsizligini ta'minlash, ko'ngilsiz hodisalarning oldini olish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.



Mudofaa vazirligiga qarashli Toshkent shahridagi harbiy qismlarning birida yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ko'rgazmali mashg'ulot o'tkazildi.

Hamkor tashkilotlar bilan birgalikda tashkil etilgan tadbirda qo'shinlar xizmatini tashkillashtirish uchun yagona yondashuvni belgilashga oid rahbariy hujjatlar talablari yetkazildi hamda nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tkazildi.

Shuningdek, FVV yong'in xavfsizligi xodimlari va Toshkent garnizoni yong'in nazorati inspeksiyasi mutaxassislari tomonidan "Harbiy qismda yong'in xavfsizligini tashkillashtirish tartibi. Qismda yong'in sodir bo'lganda, mansabdor va javobgar shaxslarning harakati. Birlamchi yong'inni o'chirish vositalaridan foydalanish tartibi va taktik-texnik tavsifi" mavzusida ko'rgazmali mashg'ulot tashkil etildi.

Bu kabi tadbirlarning tashkil etilishi qo'shinlarda jangovar xizmat sifatini yanada oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Podpolkovnik O'ktam XAITOV

## Moziyga sayohat

# Xotira — ulug' qadriyat



9-may — Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan Toshkent harbiy prokuraturasi va Mudofaa vazirligiga qarashli harbiy qismlar hamkorligida "Xotira — ulug' qadriyat" shiori ostida vatanparvarlik tadbiri o'tkazildi.

Toshkent viloyati Chinoz tumanidagi 5-, 13-, 14- va 42-umumta'lim maktab o'quvchilari uchun poytaxtimizdagi "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasi hamda "Shon-sharaf" davlat muzeyiga sayohat uyushtirildi.

Unda yoshlar Ikkinchi jahon urushi davrida ota-bobolarimizning tinchlik yo'lidagi qahramonliklari va bu davrda O'zbekiston xalqining bag'rikengligi, mehmondo'stligi va jasorati aks etgan ma'lumotlar bilan yaqindan tanishdilar.

**Adliya mayori Sardorxo'ja ABROROV,**  
Toshkent harbiy prokuraturasi  
katta yordamchisi

## Huquqiy profilaktika

# OCHIQ MULOQOT

Mudofaa vazirligiga qarashli qo'mondonlikda huquqbuzarliklarning oldini olish masalalariga bag'ishlangan ochiq muloqot bo'lib o'tdi.

Onlayn va oflayn o'tgan tadbirda O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi o'rinbosari Q. Isoilov, polkovnik J. Yakubov, shuningdek Toshkent harbiy prokuraturasi, shahar IIBB va qo'mondonlik tizimidagi harbiy qismlar mas'ullari ishtirok etdi.

So'z olganlar shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi zamonda jinoyatchilikka va turli xatarlarga qarshi doim sergak va ogoh bo'lish zarurati, shu bilan birga, qonunchilikdagi yangiliklar haqida to'xtalib o'tdi.

Tadbir yakunida mavzuga doir videoroliklar namoyish etildi. Bu singari muloqotlar harbiy xizmatchilarning huquqiy madaniyati yanada yuksalishi yo'lida xizmat qiladi.

**Adliya mayori Sarvar YULDASHEV,**  
Respublika Harbiy prokuraturasi  
bo'lim harbiy prokurori

## So'ragan edingiz

# HUQUQIY maslahat



**Savol:** "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseylari bitiruvchilariga oliygohlarga kirishda qanday imtiyozlar bor?

**Javob:** "Temurbeklar maktabi" bitiruvchilariga: "O'zbekiston Respublikasi oliy harbiy hamda harbiylashtirilgan va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga o'qishga kirishda o'tkaziladigan test sinovlarida o'zlari to'plagan ballarning 30 foizi miqdoridagi;

respublikaning boshqa davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishda esa o'zlari to'plagan ballarning 15 foizi miqdoridagi qo'shimcha ballar ko'rinishida imtiyoz beriladi.

"Temurbeklar maktabi"ni imtiyozli diplom bilan tugatgan bitiruvchilarga tarkibida "Temurbeklar maktabi" bo'lgan vazirlik va idoralarning tegishliligi bo'yicha oliy harbiy hamda harbiylashtirilgan ta'lim muassasalariga yoki ixtisoslashtirilgan bilim yurtlariga test sinovlarisiz, tanlash tadbirlaridan muvaffaqiyatli o'tish natijalari bo'yicha kirish huquqi beriladi.

**O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi axborot xizmati**



## BUYUK IXTIROLAR

SOVUN  
QANDAY IXTIRO  
QILINGAN?

Bolajonlar,  
bugun sizlar  
uchun har doim  
ishlatiladigan  
va hech narsa  
bilan almashtirib  
bo'lmaydigan  
sovun haqida  
ma'lumot  
to'pladik.



Sovun suyuq yoki qattiq bo'lishi mumkin. Sovunni kim va qachon ixtiro qilgani haqida olimlar hali ham bahslashadi. Ammo hozirgacha bir yechimga kelishmagan. Sovunning kelib chiqish tarixi qadimgi Rimga borib taqaladi. Odamlar yog'li

yaxshiroq yuvilganini payqab qolishadi. Sekin-asta odamlar sovun tayyorlashni o'rgandi va "sovun ishlab chiqaruvchi" kasbi paydo bo'ldi. Sovunlarning narxi qimmat bo'lgani sababli ayollar



teridan kirni qanday tozalash haqida ko'p bosh qotirgan. Ular o'zlariga ovqat tayyorlash uchun olov yoqib, undan qolgan kulni suvda eritib, shu suv bilan yuva boshlagan. Yog' va kul aralashmasi yomg'ir yog'ishi natijasida ajoyib massaga aylanadi. Vaqt o'tishi bilan bu massa tepaliklardan daryo bo'yiga oqib tusha boshlaydi. U yerda kir yuvayotgan mahalliy aholi aralashma yordamida kirlar

uy sharoitida o'zlari tayyorlagan. Ishlab chiqaruvchilar sovunga yoqimli hid berish uchun tuli xil o'simlik va meva sharbatlarini qo'sha boshladi. Keyinchalik sovunni rangli qilish uchun unga turli xil (tabiiy va kimyoviy) bo'yoqlar aralastira boshlagan.

Hozirgi vaqtda ishlab chiqaruvchilar sovun tayyorlashda xushbo'y efir moylaridan foydalanadilar. Bolalar sovuniga esa terisiga zarar bermaslik uchun ko'proq tabiiy moddalar qo'shadi.

CHUMOLILAR  
OILASI

To'rt chumolidan iborat bir oila o'zlarining kichkinagina uyida yashar edi. Ismlari Jasur, Zehnli, Mehribon va Kichkina edi. Ularning har biri o'zlariga xos fazilatga ega edi: Jasur kuchli va mard, Zehnli – aqli va topqir, Mehribon – oqibatli va g'amxo'r, Kichkina esa serharakat va o'yinqaroq edi.

Kunlarning birida ularning uyiga katta bir to'fon keldi va kichkina uyini vayron qildi. Chumolilar oilasi qiyin ahvolda qoldi. Ammo ular taslim bo'lishni istamadi va yangi uy qurishga qaror qilishdi.



Jasur og'ir yuklarni ko'tarishda, Zehnli uyni qanday qurishni rejalashtirishda, Mehribon boshqa chumolilar bilan aloqa qilishda, Kichkina esa kichikroq buyumlarni tashishda yordam berdi. Ular bir-birlariga yordam berib, birgalikda ishlashdi.

Kunlar o'tib, chumolilar oilasi uy qurishda davom etdi. Jasurning kuchi, Zehnlining aqli, Mehribonning g'amxo'rliigi va Kichkinaning serharakatligi ularga yangi uy qurishda katta yordam berdi. Ular har kuni birgalikda ishlar, kechqurunlari esa yangi uyda birga vaqt o'tkazar edi.

Ayniqsa, Kichkina kichik bo'lishiga qaramay, uy qurishda o'zining chaqqonligi va o'yinqaroqligi bilan hamma uchun ilhom manbayi bo'ldi. U kichik va yengil narsalarni tashishda, shuningdek boshqa chumolilarga ruhiy dalda bo'lishda asosiy rol o'ynadi.

Nihoyat, bir necha haftalik mehnatdan so'ng chumolilar oilasining yangi uyi tayyor bo'ldi. Uy ularning oldingi uylaridan ham chiroyli va mustahkam edi. Uyning ochilish

YURTNING  
DUOSI

*Yurtini sevgan el daho bo'ladi,  
Yurti uchun joni fido bo'ladi,  
Gar qadrin bilmasa ona tuproqning,  
Kun kelib unga zor gado bo'ladi.*

*Onam debon quchsin o'pib tuprog'in,  
Hilpiratib yursin ko'kda bayrog'in,  
Shu yurtning farzandi har doim, har on,  
Jonday qadrlasin cho'p-u giyohin.*

*Turmasin bir chetda yov kelsa nogoh,  
Hushyorlikda bo'lsin hamisha ogoh,  
Ular Alpomishlar zurriyotidir,  
Vataniga bo'lsin abadiy panoh.*

Gulsanam Shodiyeva,  
Nishon tumanidagi 26-umumta'lim maktabining  
9-sinf o'quvchisi



marosimida qishloqning boshqa chumolilari ham qatnashdi va ularning mehnati va birdamligiga tan berishdi.

Chumolilar oilasi endi yangi uylarida baxtli va xavfsiz yashardi. Ularning hikoyasi qishloqdagi barcha chumolilarga ilhom bag'ishladi hamda ular birgalikda va hamkorlikda ishlashning ahamiyatini tushunishdi.

Shu tariqa ertak bizga birdamlik, mehnatning ahamiyatini o'rgatadi. Har bir oilaning a'zosi kichik yoki katta bo'lishidan qat'i nazar oila hayotida muhim rol o'ynaydi va har birining hissasi bebaho.

Jahon xalq ertagi







So'nggi yillarda Qurolli Kuchlarimiz Oliy Bosh Qo'mondoni boshchiligida o'z burchini sidqidildan ado etayotgan yurt himoyachilarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash masalasiga alohida e'tibor qaratilib, amalga oshirilayotgan tub islohotlar natijasida harbiy xizmatchilarni zamon talablari asosida barpo etilayotgan uy-joylar bilan ta'minlash borasida keng ko'lami chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

# YUKSAK E'TIBOR NAMUNASI



Ana shunday bunyodkorlik va yaratuvchanlik ishlarini Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari harbiy qismlari misolida ko'rishimiz mumkin.

Toshkent tumanida joylashgan harbiy qismlarning birida sarhadlarimiz daxlsizligini ta'minlayotgan chegarachi o'g'lonlar va ularning oila a'zolari uchun yangi xizmat xonadonlarini foydalanishga

himoyasi yo'lida samarali faoliyat olib borishlari uchun davlatimiz tomonidan barcha shart-sharoit va qulayliklar yaratilayotgani haqida to'xtalib o'tdi.

Ortda qolgan yillar sarhisobi-yu, kecha va bugunni qiyosiy taqqoslash imkoniga ega bo'lgan faxriylar ham mamlakatimizda harbiylarning ijtimoiy himoyasini yanada yaxshilash borasida



Xonadonlar kaliti o'z sohiblariga topshirilgan ekan, shu kichik kalitlar katta baxt, farovon turmush va shodlik eshiklarini ochib, harbiy oilalar farzandlari bilan birga keng, yorug' va barcha qulayliklarga ega bo'lgan xonadonlarda tinch-totuv yashashiga tilak bildirildi. Ramziy lentalar kesilgach, mehmonlar xizmat xonadonlarida yaratilgan shart-

yaqinlarimiz kelishgan. Endi ularni bemalol kutib olib, mehmon qilishimiz uchun sharoitimiz yetarli, - deydi Zebiniso Asatillayeva.

Albatta, bunday baxt qo'rg'onlari harbiylarimizning kuchiga kuch, g'ayratiga g'ayrat qo'shib, oila bekalarining quvonchi va farzandlarining sho'x-shodon kulgilarini ta'minlashga xizmat qilishi, shubhasiz.



topshirish marosimi quvonchli lahzalarga boy tarzda o'tdi.

Shu kuni ularni samimiyat bilan qutlash uchun tantanali tadbirda ishtirok etgan Chegara qo'shinlari mas'ul ofitserlari, faxriylar va "Sarke" mahalla fuqarolar yig'ini a'zolari islohotlar mamlakati bo'lgan jonajon Vatanimiz o'z himoyachilarining mashaqqatli va shu bilan birga sharafli xizmatlarini hamisha yuqori baholab, ularning oila a'zolari bilan birgalikda munosib tarzda tinch-totuv istiqomat qilishlari hamda yurt



amalga oshirilayotgan ishlar havas qilarli darajada ekanini alohida e'tirof etdi.

- Foydalanishga topshirilayotgan uylarni ko'rib ko'zing quvnaidi. Chunki bir vaqtlar biz bunday sharoitlarni orzu qilganmiz. Davomchilarimizga ko'rsatilayotgan yuksak e'tibordan mamnun bo'lgan holda, bu g'amxo'rliklarni qadrlashlari kerakligini ularga tushuntiryapmiz, - deydi Chegara qo'shinlari faxriysi iste'fodagi podpolkovnik Baxtiyor Adamov.



sharoitlar bilan yaqindan tanishdi.

- Bizga yangi xonadonlardan biri nasib etdi. Meni quvontirgan jihati, hovlimizda farzandlarimiz uchun shinamgina bolalar maydonchasining borligi bo'ldi. Chunki ular ko'z oldimizda bo'lishsa, biz xotirjam uy yumushlarini bajara olamiz. Bugungi tadbirga ota-onalarimiz,



**Mayor Farida BOBOJONOVA**  
DXX Chegara qo'shinlari

@Vatanparvargazetasi\_bot  
"Vatanparvar" birlashgan tahririyati bilan bog'lanish uchun telegram bot



**SHU SONNING  
ELEKTRON SHAKLI**

VATANPARVAR

MUASSIS



O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI  
MUDOFAA  
VAZIRLIGI

www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:

general-mayor Hamdam Qarshiyev  
polkovnik Otabek Yuldashev  
polkovnik Alisher Boboxonov  
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti - "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:

podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:

kotibiyat: 71 260-36-50  
buxgalteriya: 71 260-35-20  
yuridik bo'lim: 71 260-29-41  
faks: 71 260-32-29

Navbatchi: podpolkovnik Gulnora Xodjamuratova

Sahifalovchi: Nodirabegim Ne'matova  
Musahhah: Zebo Sariyeva

Buyurtma: V-5745  
Hajmi: 6 bosma taboq  
Bichimi: A3  
Adadi: 34 209 nusxa  
Bosishga topshirish vaqti: 14:00  
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.  
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqib boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.  
Bahosi: kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz:  
100164, Toshkent, Universitet ko'chasi, 1-uy.